

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

**URAZIMBETOVA SHOXISTA NARBAYEVNANING  
“O‘QUVCHILARNI ARUZ SHE‘RIY TIZIMIDAGI ASARLARNI  
IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISH”**

mavzusidagi

**BITIRUV - MALAKAVIY ISHI**

NUKUS – 2016

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek adabiyoti kafedrası yig‘ilishining  
2016- yil \_\_\_\_ maydagi \_\_\_\_ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n., dots. O.Duysenboyev, N.Allamberganova
Bitiruvchi:	Sh.Urazimbetova

Urazimbetova Shoxista Narbayevnaning «O‘quvchilarni aruz she’riy tizimidagi asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_\_\_» ball («\_\_\_\_%») qo‘yildi.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2016- yil

DAK kotibi:

\_\_\_\_\_

## MUNDARIJA:

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi .....	4
<b>I BOB. ARUZ SHE'RIY TIZIMINING O'RGANILISH TARIXI</b>	
1.1. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida aruzshunoslik .....	9
1.2. XX asr o'zbek aruzshunosligi. ....	15
<b>II BOB. ADABIYOT DARSLIKLARIDA ARUZ SHE'RIY TIZIMIGA OID NAZARIY TUSHUNCHALARNING BERILISHI</b>	
2.1. Adabiyot darsliklarida aruz nazariyasiga oid tushunchalar ifodasi.....	21
2.2. "Adabiyot qoidalari" darsligida nazariy ma'lumotlar ifodasi.....	31
2.3. Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida nazariy tushunchalar berilishi.....	37
<b>III BOB. ARUZ SHE'RIY TIZIMIDAGI ASARLARNI IFODALI O'QISH</b>	
3.1. Mumtoz adabiy asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning o'rni. ....	45
3.2. Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar. ....	51
XULOSA .....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. ....	59

## BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** Jamiyatni har tomonlama yuksaklikka ko'tarish komil inson tarbiyasi bilan bog'liqligi ajdodlarimiz yaratib, bizga meros qoldirgan badiiy adabiyot yodgorliklaridan ma'lumdir. Buni turkiy xalqlar uchun mushtarak ma'naviy boylik sanalgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"idan tortib, o'tgan asr boshlarigacha yaratilgan asarlarning aksariyatida bosh g'oya sifatida ko'rishimiz mumkin. Shu sababli mamlakatimiz istiqlolining birinchi kunlaridan boshlaboq milliy qadriyatlarimiz asosi bo'lgan mumtoz adabiyotni o'rganish va yoshlar ongiga singdirish masalalari davlat ahamiyatiga molik muammo sifatida kun tartibiga qo'yildi. Milliy-tarixiy qadriyatlarimizni o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Xalq ta'limi tizimining barcha bosqichlarida mumtoz adabiyotga xos belgi-xususiyatlar, so'z san'ati taraqqiyot bosqichlari, shakli va mazmuniga daxldor nazariy bilimlarni yosh avlodga o'rgatish jiddiy tus oldi. Bu borada yoshlarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar mazmuni va me'yori Davlat ta'lim standarti, ushbu hujjat asosida tuzilgan o'quv dasturlarida qat'iy belgilab berildi. Ta'lim tizimidagi islohotda mumtoz adabiyotni o'rganishga alohida diqqat qaratilganligi bejiz emas. Negaki, o'tmish adabiyotimiz zamiridagi umuminsoniy g'oyalar bolalarni el-u yurtga sadoqatli, vatanparvar, insofli va e'tiqodli, mehnatsevar va mard, uddaburon va hozirjavob fuqarolar sifatida shakllanishiga ko'maklashadi. Shuning uchun ham milliy istiqlol mafkurasi adabiy merosga halol, xolisona munosabatni talab etadi ham uni davlat va jamiyat rivojlanishidagi tayanch tamoyillardan biri sifatida e'tirof etadi.

"Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi, - deya yozadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, - jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamiyatga egadir".<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov IA. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., O'zbekiston, 1995, 139-140-betlar.

Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lish, har bir ijodkor qalamining badiiy salohiyatini anglab etish, she'rlarga xos nafis ohanglarni ham, so'z san'atining betakror nafosat-u latofatini ham his etish uchun ushbu bezavol yodgorliklarga asos bo'lgan aruz she'riy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidalar va amaliy xususiyatlarini bilish talab etiladi.

Qadimiy va serjilva aruz vaznining rango-rang o'lchovlariga tayanib qalam tebratgan ijodkorlar yuzdan ortiq she'riy o'lchovning turfa ohanglarini batafsil o'rganib chiqib, ularning eng xalqchil, musiqiy, serjilo turlarini tanlaganlar, har bir she'riy o'lchovning o'ziga xos jihatlari, tovushlarning garmonik jilolaridan mohirona foydalanganlar. Bunga ming yillik bezavol she'riyatimizning ulkan xazinasini misol bo'la oladi. Yusuf Xos Hojibdan tortib, Erkin Vohidovgacha bo'lgan qalam sohiblarining badiiyat dahosini kashf etmoq uchun ularning o'z asarlari vazni ustida ishlash mohoratini atroflicha tadqiq etish muhim ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Shulardan kelib chiqqan holda biz malakaviy ishimizda xuddi shu masala - mumtoz adabiyotimizning poetik muammosi aruz she'riy tizimini ta'lim bosqichlarida o'rganish masalasini ko'rib chiqmoqchimiz. Zero, mumtoz she'riyat sirlarini yoshlarga o'rgatish, ularni ma'rifiy-axloqiy va badiiy-estetik jihatdan kamolotga yetkazishda katta vazifa bajaradi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirgacha ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti o'qitishning turli masalalariga bag'ishlab tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi TDPUning tegishli kafedralari o'qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan adabiyot o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan metodik maqolalar to'plamlari, darslik va qo'llanmalar chop etildi.<sup>1</sup> Professor B.To'xlievning adabiyot o'qitish metodikasi borasidagi qator ilmiy ishlari, professor Q.Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qituvchisiga metodik yordam" turkumidagi risolalari, Nizomiy nomidagi

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006; Filologik talimda innovatsion texnologiyalar. T., 2004; O'zbek adabiyotini o'qitishning dolzarb muammolari. T., 1997; Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996; Filologik talim masalalari. T., 2007.

TDPU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini tomonidan chop qilinayotgan maqolalar to‘plamlari, ushbu kafedra tashkil qilayotgan “Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, shuningdek, respublikamizda nashr qilinayotgan “Til va adabiyot ta’limi”, “O‘zbek tili va adabiyoti” kabi manbalarda metodist olimlar va adabiyot oqituvchilari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi o‘zbek adabiyoti kafedrasining “2015-2020 yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbol rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Adabiyot darslarida she’riy tizimlar bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish, aruz she’riy tizimiga oid asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida:

-adabiyot darslarida nazariy ma’lumotlarni o‘rgatishning usul va uslublarini yaratish;

-aruz she’riy tizimi bilan bog‘liq nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga yetkazishning samarali usullarini ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratildi;

-aruz she’riy tizimidagi asarlarni o‘rgatishda ifodali o‘qishning o‘rni va ahamiyatini aniqlash;

- aruz vaznidagi asarlarni o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar berish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilab qo‘yildi.

**Tadqiqotning obyekt.** Adabiyot darslarini tashkil etish haqidagi ilmiy ishlar, maktab dastur va darsliklari mazkur ishga jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmeti.** Umumta’lim maktablari dastur va darsliklaridan joy olgan aruz she’riy tizimini va mazkur tizimda yaratilgan asarlarni o‘rgatish usullarini tadqiq qilish.

## **Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.**

Bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va nutqlarida milliy mafkura va milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar til, o'zlikni anglash, madaniy meroslarga munosabat, ajdod-u avlodlarimizga ehtirom borasida bildirgan fikr- mulohazalari hamda adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar metodologik asos vazifasini o'tadi.

Malakaviy-bitiruv ishni yozish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishda o'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasidagi mavjud qarashlar asosida adabiyot darslarida aruz she'riy tizimini o'rgatish haqidagi fikrlar umumlashtirilib, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Bunda:

-adabiyot darsliklarida aruz she'riy tizimiga oid nazariy tushunchalarning berilishi bo'yicha munosabat bildirildi;

-aruz she'riy tizimi va uni o'qitishdagi murakkabliklar aniqlanib, o'quvchilar ongiga yetkazish usullari o'rganildi.

-aruz vaznida bitilgan asarlar matni ustida ishlashda ifodali o'qishning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar umumlashtirildi;

-aruz she'riy tizimining o'ziga xosliklari tadqiq qilindi hamda mazkur vaznda bitilgan adabiyot durdonalarini o'qitish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy qimmatini adabiyot darslarida aruz she'riy tizimida yaratilgan asarlarni o'rgatishga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida she'riy tizimlarga oid nazariy tushunchalarni o'rgatish masalalariga oydinlik kiritadi va o'rgatishda adabiyot o'qituvchilari uchun manba bo'la oladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda ham tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o‘zbek adabiyoti kafedrası yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Mavzu yuzasidan bitta ilmiy maqola nashr qilingan. Tadqiqot natijalari yuzasidan Nukus shahri 38-maktab pedagogik kengashida ma’ruza qilingan va ochiq dars o‘tkazilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** BMI uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 60 sahifani tashkil qiladi.



## **I BOB. ARUZ SHE'RIY TIZIMINING O'RGANILISH TARIXI**

### **1.1. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida aruzshunoslik**

Aruz she'riy tizimi asrlar davomida arab, fors-tojik va turkiy she'riyatlarda amaliy jihatdan qo'llanib kelishi bilan bir vaqtda ushbu xalqlar adabiyotshunosliklarida nazariy jihatdan xam takomillashib bordi. Aruz maxsus ilm sifatida maktab va madrasalarda muttasil o'rgatildi, mazkur she'riy mezon nazariyasi va amaliyotiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi, risolalar bitildi. Halil ibn Ahmaddan so'ng Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad Ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlari ushbu ilmga doir asarlar yaratib, aruz taraqqiyotiga hissa qo'shdilar.

Aruz ilmi haqida, ayniqsa, fors-tojik adabiyotshunosligida ko'plab asarlar bitildi. Mavlono Yusuf Nishofuriy (X asr) ofrsiy tilda aruzga oid asar yaratgan olimlarning birinchisi edi. Rashididdin Vatvotning (XIII asr) "Hadoyiq us-sehr", ushbu asrda yashab ijod qilgan Shams Qaysning "Al-Mo'jam fi me'yor ashor al-Ajam", Nasriddiy Tusiyning (XIY asr) "Meyor ul-ashor", shu asr vakili Salmon Savojiyning "Qasidatun masnuot al-aruz", Abdurahmon Jomiyning (XV asr) "Risolai aruz" asarlari fors-tojik aruzining nazariy va amaliy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etdi.

Aruz ilmiy taraqqiyotiga turkiy xalqlar ichidan yetishib chiqqan adabiyotshunos olimlar ham munosib hissa qo'shdilar. Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (XI asr), Abul Qosim Zamahshariy (XI-XII asr), Abu Yaqub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy (XII-XIII asr)lar o'zlarining arab va forsiy tilda bitgan ilmiy asarlari bilan faqat arab va forsiy aruzlarga emas, ayni vaqtda turkiy aruz taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdilar.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning ilk bor turkiy tilda yaratilgan "Mezon ul-avzon" asari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' mutafakkir shoir aruz qoidalarini, xilma-xil bahrlari hamda vaznlarini turkiy tilda mufassal bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, turkiy xalqlarning og'zaki she'riyati mezoni bilan aruz vaznlari hamohangligini atroflicha dalilladi hamda turkiy til

xususiyatlarini nazarda tutgan holda aruzning turkiy adabiyotlarda, xususan, o‘zbek she‘riyatida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab o‘lchovlarni ham belgilab berdi.

O‘zining lirik asarlari va dostonlarini yaratishda aruzning rango-rang vaznlarini sinchkovlik bilan sinovdan o‘tkazgan Alisher Navoiy turkiy tillarda ham aruz o‘lchovlari asosida turli-tuman janr va shakllarda g‘oyat latif lirik asarlar yaratish va yirik dostonlarni bitish mumkinligini amalda isbot ham qilib bergan edi. Bu bilan shoir turkiy tilning beqiyos boyligi va betakror go‘zalligini she‘riy o‘lchov jihatidan ham namoyish qildi.

O‘zbek aruzining nazariy va amaliy jihatdan kamol topishida Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” deb atalgan yirik ilmiy asarining ahamiyati beqiyosdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asrining talantli shoiri va nosiri bo‘lishi bilan birga qobiliyatli adabiyot nazariyotchisi va olimi ham edi. Bu da‘voni uning “Boburnoma”sidagi ko‘pgina fikrlar, jumladan, zamonasidagi shoir va olimlar haqida bildirgan mulohazalari tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan esa, “Boburnoma”dan ma‘lum bo‘lishicha, XV asrning oxirlarida adabiyot nazariyasi, xususan, aruzga bag‘ishlangan ko‘pgina risolalar, Jumladan, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Sayfi Buxoriyning “Mezon ul-ash‘or” yoki “Aruzi Sayfiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan risolalar Boburning diqqatini o‘ziga tortgan edi. Shunday qilib, Boburning aruz nazariyasiga bag‘ishlangan ilmiy risolasi XVI asrning 20-yillarida dunyoga keldi.

XVI asrning ikkinchi yarmida yaratilgan ayrim manbalardagi ishoralarga ko‘ra, Boburning aruzga doir risolasi Mavorounnahr, ayniqsa, Buxoro va Samarqand adabiy muhitiga, ushbu muhit vakillariga ma‘lum va mashhur bo‘lgan. Bu fikrni XVI asrda yashab ijod etgan taniqli shoir va adabiyotshunos olim Hasan Nisoriyning 1565-1566-yillarda yozilgan “Muzakkiri ahhob” tazkirasida quvvatlaydi. Ushbu muallif o‘z tazkirasida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ijodiga yuksak baho berib, “Risolai aruz” asari haqida ham g‘oyat iliq fikrlar bayon qiladi. Shunday ekan, Nisoriy Boburning aruz haqidagi

asarini shunchaki qarab chiqqan emas, balki uni chuqur mutolaa qilib, o'z ijodida amaliy foydalangan ham.

Qizig'i shundaki, Boburning ushbu risolasi XVII- XVIII-XIX asrlarda yaratilgan manbalarda umuman tilga olinmaydi. Bu davr mobaynida ushbu asar olimlar va kitobxonlar nazariga tushmaganga o'xshaydi. Faqat XX asr boshlariga kelib mazkur kitobning bir qo'lyozma nusxasi Parijdagi Fransuz milliy kutubxonasida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshladi, u haqda maqolalar e'lon qilindi. Nihoyat, taniqli sharqshunos va adabiyotshunos olim M. Hamroev tahriri ostida 1969-yili Olmaota shahrida uyg'ur tilida chop etildi. Keyinchalik adabiyotshunoslar Saidbek Hasanov va I.Steblevalar asarni to'la ravishda bosmadan chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Shunday qilib to'rt asr o'tgachgina Boburning ushbu ilmiy risolasi keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola qilinib o'z qadr-u qimmatini topdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning aruzga bag'ishlangan risolasi o'zbek she'rshunosligining qonuniy talablari natijasida hamda Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarining mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi. Agar Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon"i o'zbek she'rshunosligining Navoiyga qadar va uning davridagi, qisman Navoiy ijodidagi xususiyatlarini, xususan, aruz bilan bog'liq tajribalarini nazariy jihatdan umumlashtiruvchi asar bo'lsa, Boburning "Muxtasar"i Alisher Navoiy ijodiy merosi va qisman muallifning – Boburning tajribalari asosida yuzaga kelgan asardir. Ana shu holning o'zi Bobur asarining qiymatini yanada oshiradi va uning XVI asrning 20-yillarigacha bo'lgan o'zbek she'riyatini aruz nuqtai nazaridan izohlaydigan asar ekanidan dalolat beradi.

Mazkur asar faqat aruz vazni bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi deyish uning doirasini toraytirib qo'yishi mumkin. Aslida Boburning ushbu risolasida an'anaviy aruz va uning qonun-qoidalari bayon qilinibgina qolmay, unda o'zbek she'rshunosligi hamda eski o'zbek tili fonetikasining aruzga munosabati; turkiy o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma she'riyati orasidagi o'zaro ta'sir, ularning o'ziga xos xususiyatlari, muallifning o'zbek, ozorbayjon

va fors-tojik adabiyotlarining zabardast namoyandalari ijodi, asarlari haqidagi mulohazalari ham mo'jaz tarzda o'z ifodasini topgan. Asarda adabiyotshunoslikning muhim masalalari o'zbek adabiyotining qardosh adabiyotlar bilan aloqa ko'lamida yoritilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning ta'kidlashicha, risolada aruzning 21 bahri va undagi 537 vazn tavsif qilingan. Shunisi diqqatga sazovorki, aruzga bag'ishlangan boshqa risolalarda, jumladan Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Sayfi Buxoriyning "Mezon ul-ash'or"larida aruzning 19 bahri haqida ma'lumot beriladi. Bobur esa o'z risolasida tavil doirasida hosil bo'luvchi ariz va amiq bahrlari ham mavjudligini uqtiradi, bahrlar sonini 21 taga etkazadi. "Risolai aruz"da ariz va amiq bahrlari tavil, madid va basit vaznlari qatorida "Doirai mutalifa"ga kiritilgan.

Diqqatga loyiq tomoni shundaki, Bobur bu bahrlarning o'zbek va tojik shoirlari tomonidan kashf etilganini alohida uqtirib, ariz bahri haqida shunday yozadi:

"Bu bahrni Ajam shuarosi paydo qilib, maqlubi tavil depturlar, ariz ham derlar». Asarda arizning to'rtta, amiqning ikkita vazniga misol qilib, jami to'qqiz bayt keltirilganki, shundan olti bayti o'zbek tilida bo'lsa, uch bayti fors-tojik tilidadir".<sup>1</sup>

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, bu ikki bahr shoirlar orasida keng tarqalmagan va iste'molda bo'lmagan ekan. Shunday bo'lishidan qat'i nazar, Boburning aruzdagi bahrlarning o'zaro aloqasi natijasida yangi-yangi bahrlarning paydo bo'lishi mumkin ekanligini isbotlovchi fikrlari aruz imkoniyatlarining kengligi va undan foydalanish zarurligini tasdiqladi. Bunday holat o'z navbatida har qaysi adabiyot, jumladan, o'zbek she'riyati uchun ichki imkoniyat va qonunlari asosida aruz bahrlarini ko'paytirish mumkinligini yana bir karra uqtiradi.

Agar biz XV asr tajribasiga murojaat etsak, unda Bobur ta'kidlagan fikrning to'g'riligiga to'la ishonch hosil qilamiz. Shunisi diqqatga loyiqki, ulug'

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent, 1993, 138-139-betlar.

o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ushbu hodisa va qonuniyatni payqaganini “Mezon ul-avzon”da izohlab o‘tgan edi.<sup>2</sup>

Shunday ekan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z risolasini yozayotganda aruz haqidagi mavjud fikr-mulohazalar bilan qanoatlanib qolmay, uni yanada rivojlantirgan, unga o‘zining kuzatishlari natijalarini qo‘shib borgan. Bunday holni asarda 21 bahrning 537 vaznining keltirilishida ham ko‘rish mumkin.

Bobur o‘z risolasida bahrlar haqida so‘z yuritganda biroz mufassalroq ma’lumot berish bilan birga, har bir bahrda yaratilgan g‘azallar yoki masnaviylardan misollar keltirib, ularni tahlil qilishga, shu munosabat bilan o‘sha bahrda yozilgan g‘azallardagi san’atlarga doir o‘zining ilmiy kuzatishlari natijalarini bayon etishga intiladi. Bunday hol esa, Bobur bayonining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. O‘z navbatida shoirning faqat aruzshunosligini emas, balki o‘zbek va qardosh xalqlar she’riyatini sinchiklab o‘rganganligi, uning xususiyatlarini o‘rganishga uringanligini ko‘rsatadi. Masalan, Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon”ida mutalifa doirasini tashkil etuvchi hazaj, rajaz, ramal bahrlari haqida gapirib, shunday yozadi:

“Hazaj, rajaz va ramal binosi tavil, madid va basitning suboiyotig‘adur. Hazaji musammani solimda sakkiz qatla mafoiylun”dur va rajaz ajzosi sakkiz qatla “mustafilun”dur va ramal ajzosi sakkiz qatla “foilotun”dur. Va bu bahrni bir doirag‘a qo‘yupturlar va ul doirani “mutalifa” debdurlar.”<sup>1</sup> Bobur esa o‘z risolasida xuddi shu masalani quyidagicha izohlaydi:

“Yana hazaj, rajaz va ramal doirasidurkim, mujtaliba derlar. Bu uch bahrning binosi biror suboiy rukn biladurkim, takror topar. Bu suboiy ruknlar muallafdur uch juzvdin: bir vatadi majmo‘, ikki sababi hafif. Agar ibtido vataddin bo‘lsa, bu vazn bo‘lur mafoiylun to‘rt qatlakim, hazaj bahridur. Va agar avvalg‘i sababtin bo‘lsa, bu vazn bo‘lur mustafilun to‘rt qatlakim, rajaz bahridur”.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Asarlar, 14-jild, Toshkent, Fan, 179-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jildlik, 14-jild, T., Fan, 1967, 143-144-betlar.

<sup>3</sup>Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. Toshkent, fan, 1971, 25-bet.

Bunda Bobur bayoni va sharhidagi aniqliqlik va batafsillik diqqatni tortadi, shuning bilan birga u aruzni o'rganish, uning turli xususiyatlari bilan yaqinroq tanishishga imkoniyat beradi. Shunday qilib, kuzatayotganimizdek, Boburning "Muxtasar" asari uning she'rshunoslikni til qonun-qoidalari bilan bog'lab o'rganishga alohida diqqat qaratganini ko'rsatadi. Binobarin, ushbu asar o'zbek aruzining ilm sifatidagi taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

XIX asrning oxirlariga kelib atoqli shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham aruz ilmiga doir risola bitgan edi. Haligacha nashr qilinmagan bu asarni professor G'ulom Karimov Ostroumov fondidan topgan edi. O'n olti betlik kichik bu risolada shoir aruzning she'riyatimizda keng istifoda qilingan 55 vazni haqida ma'lumot bergan, har qaysi o'lchovga forsiy va turkiy she'riyatdan misollar keltirib, o'z fikrini isbotlashga harakat qilgan.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Karimov G'. Xalq, tarix, adabiyot. T., Adabiyot va sanat nashriyoti, 1977, 125-126-betlpr.

## 1.2. XX asr o‘zbek aruzshunosligi

XX asrga kelib ham aruz o‘zining serjiloligini yo‘qotmadi. 1936- yilda Abdurauf Fitrat qalamiga mansub “Aruz haqida” risolasi nashrdan chiqarildi. Fitrat risolasi nafaqat aruz tarixi va texnikasi, balki umuman vazn nazariyasi va uning qo‘llanilish tarixidan saboq beruvchi nazariy qo‘llanma ham hisoblanadi. Chunki olim o‘z risolasida she‘r vazni masalasiga she‘riy asarni yuzaga chiqaruvchi eng zaruriy badiiy birlik sifatida qaragan. Fitratning fikricha, she‘r vaznlari orasida bir-biridan farqlantiruvchi xususiyatlar mavjud: “Barmoq vazni shoirlari hijolarning soniga ahamiyat beradilar. Va bir misrani tashkil qilgan ma’lum bir miqdordagi hijolarni turoqlar vositasi bilan ayrim to‘plamlarga ajratadilar-da, turoqlarning joyini belgilash kerak bo‘lgan ohangni ta’min etadilar. Aruz vaznida esa, hijolarning ahamiyati bilan kayfiyati (miqdori bilan sifati) ayni darajada asosiy rol o‘ynaydi. Misralarda hijolarning soni e’tiborga olingani kabi qisqa va to‘liq hijolarning tizilish tartibi ham o‘zgargancha yangi-yangi vaznlar maydonga keladi. Mana shu xususiyat barmoq vazni sitemasida yo‘q.”<sup>1</sup>

Fitrat arab aruzining murakkablashish va mukammallashish jarayoni haqida so‘z yuritarkan, Axfash, Ibn Sidqiy kabi aruz nazariyotchilarining qarashlari hamda ularning aruz nazariyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini o‘rinli ko‘rsatadi. Bu bilan cheklanmay qo‘shni Eron va Rum mamlakatlarida aruzning tarqalish sabablarini ham tushuntirib o‘tadi. Fitratning bu boradagi mulohzalari shu jihati bilan e’tiborga loyiqki, u arab aruzining ajam mamlakatlari bo‘ylab tarqalishiga sabab Ovro‘pa olimlari tomonidan ta’kidlanayotgandek arab bosqini bilan bog‘labgina qolmay, balki “Eron she‘r vaznining-da arab istilosidan va arab aruzi qoidalari qabulidan avval bugungi aruz vazniga chiqqan bo‘lishi” mumkinligini qadimgi fors manbalari tahlili orqali isbotlashga harakat qiladi.

Risolada arab aruzi bizga qadar arab-fors aruzi shaklini olgani, so‘ngra esa O‘rta Osiyo turklari tomonidan qabul qilingani davomli suratda ko‘rsatib

---

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat. Aruz haqida. T., O‘qituvchi, 1997, 18-bet.

beriladi. “Mana shunday qilib, arab aruzini arab-fors aruzi holiga keltirdilar. Bizning O‘rta Osiyo turklari tomonidan qabul etilgan aruz shul arab-fors aruzidir, qachon qabul etilgani aniq emas. Biroq hijriy 462-yilda Qashg‘arda yozilgan mashhur “Qutadg‘u bilig»ning shu aruz vaznida yozilganiga e‘tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma‘lum bo‘ladir.” Demak, bizning she‘riyatimiz Yusuf Xos Hojib davridan boshlab mana shu vaznni davomli ravishda qo‘llagan, mumtoz adabiyotimizning eng go‘zal va komil asarlari shu vaznda bitilgan ekan, aruz intizomini chuqur egallash majburiyati shu kungi adabiyotshunoslar va shoirlar zimmasida qoladi.

Gap Fitratning aruzshunoslik faoliyati haqida borarkan, ushbu mavzuda yozilib, o‘z davrida shuhrat topgan va sharqda “Aruzi turkiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolai aruz” – “Muxtasar” asariga Fitratning munosabati masalasiga ham diqqat qaratish zarur. Chunki bu mavzuda Fitratga qadar uzoq vaqt ilmiy asar yaratilmadi, ayrim usmonli turk olimlarining asarlari ham Navoiy va Boburlarning qaydi darajasida edi.

Ma‘lumki, Fitrat o‘z asarida Navoiy risolasiga munosabatini yashirmaydi. Ayrim o‘rinlarda ulug‘ shoirdan iqtibos keltirib, unga munosabatini anglatgan bo‘ladi. Xususan, Fitratning ushbu risoladan 17 yil avval yozilgan “She‘r va shoirliq” maqolasida “vazn” va “qofiya” masalalaridan so‘z yuritarkan, aruzda Navoiy asarlarini mukammal sanaydi va ulug‘ shoirni bu ma‘noda taqdirlagan bo‘lsa ham, keyingi asarlarida Navoiy she‘riyatida “arab-eron metrikasi butun tafsiloti bilan aks etgani”ni qayd etadi.

Ma‘lum bo‘lishicha, Fitratni arab yoki arab-fors aruzi emas, balki turk milliy vaznini yaratishga urinishlar ko‘p qiziqtirgan. Shunday tamoyillarni Navoiy va Bobur asarlaridan izlagan. Arab aruzining qat‘iy qonunlari, fors aruziylarining ustaligi bilan o‘zgartirilib, fors tili xususiyatlariga moslashtirilgan ekan, bizning turk aruzchilari, xususan, Navoiy va Boburday turk she‘riyatining zabardast shoirlari nega shunday yo‘l tutmadilar? Ular o‘z so‘zlarini “gavdasini bukib” bo‘lsa ham aruz zanjiriga taqdim etganlari holda turk tili



xususiyatlarining aruzda qo‘llanishiga imkon berarlik darajada aruz ramkasini kengaytirishga urinmadilarmi? Bu savollarga o‘z salafalaridan qoniqarli javob olmagani Fitrat baholi qudrat o‘zbek tilining xususiyatlarini hisobga olgan holda aruz texnikasini mana shu nozik farqlarni aks ettirishga qarab borgan. Xuddi shu o‘rinda Fitrat risolasidan kutilgan natijalar xususida “Adabiyot nazariyasi” deb nomlangan jamoa tadqiqotida e‘lon qilingan mulohazalar diqqatga loyiqdir:

“Har qanday ilmning vazifasi inson mushkulini battar qilish emas, balkit osonlashtirishdir. Shu sababli Fitrat fao‘lunchilikdan qutulishni taklif etgandi. Bu yo‘l aruzning o‘rta va oliy maktablarda talabalar tomonidan o‘rganilishini osonlashtiradi”.<sup>1</sup>

Fitratning aruz nazariyasi va texnikasiga qo‘shgan hissasi, uni tushuntirishda qo‘llagan usuli hamda aruzning o‘zbek she‘riyatining asosiy vaznlaridan biriga aylanishidagi o‘z yo‘li nimadan iborat ekanini aniqroq tasavvur qilish uchun risoladagi aruziy birliklarni izchilroq o‘rganish darkor.

**Vazn bo‘laklari.** Bu o‘rinda Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”ida rukn deb tanishtirilgan, Boburning “Aruz risolasi”da esa, juzv nomi bilan berilgan ritmik birliklar (sabab, vatad va fosila) nazarda tutilgan. Risolada yozilishcha, “mening ishim tekshirish ishi, shuning uchun aruzning asosiy nuqtalarini olib tanqid va izoh qilaman. Ikkinchi yoqdan yosh shoirlarimizga aruzning bor-yo‘g‘ini ochib bermakchiman. Shuning uchun ishni qulaylashtiruvchi yangi bir sistemaga qo‘yishga urunaman.

Arab-eron aruzi yuqorida ko‘rulgani kabi she‘rda vohid qiyosi qilib, baytni oladi. Bayt ikki misraga bo‘lunadi. Bir misra ikki, uch, to‘rt hiyo to‘plamig‘a (to‘rt-besh stopaga) ajraladi va bu to‘plamlarga «rukn» ismi beriladi, jami arkon bo‘ladi.”

Aruzning bu kabi ibtidoiy talablari eslatilgandan so‘ng “juzv va asliy ruknlar”yoki “zihof va fariy ruknlar” kabi an‘anaviy tushuntirish yo‘lidan bormaydi. Olimning fikricha, bu yo‘l “miyaga og‘irlik beradi”. Halil ibn Ahmad

---

<sup>1</sup> Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik, 2-tom, Toshkent, Fan, 1979, 349-bet.

asarida aytilgan sakkizta ruknlar va ularning “qisqartirilishi” va orttirilishidan hosil bo‘lgan 27 ta fariy rukn hammasi qo‘shilib 35 rukn hosil bo‘ladi. “Zihofot” degan bu kabi qiyinchiliklardan aruzni qutqara olmaganlar”, deya “gina” qiladi Fitrat.

Shuning uchun olim barmoq tizimida ko‘rilgani kabi nisbatan soddaroq yo‘l tutib, bir rukndagi to‘liq va qisqa hijolarning sifatiga asoslanib, uning har baytdagi miqdoriy jihatlarini ham hisobga olgani holda har bir misrada bir yoki ikki turoq belgilanib, ular uchun (\*) ishorati qo‘yilgan va “ist” ismi bilan yozilgan. Bir misraning “ist” bilan bo‘lingan parchalari “bo‘lim” deb atalgan. Bir misrada takrorlangan hijo to‘dalariga “to‘plam” (ruscha stopa) ismi berilgan. Shu tariqa aruz birliklarining qabul etilishi birmuncha yengillashtirilgan.

**Bahrlar va vaznlar.** An’anaviy aruz qoidalarini tushuntirishda bu kabi istilohlar qo‘llanilgan bo‘lib, mumtoz she’riyatdagi 19 bahr an’anaviy tartibda emas, balki tarixiylik tamoyili bilan saqlangan holda avval arab she’riyatida qo‘llanilgan 5 bahrni, so‘ng arab va fors she’riyatida barobar iste’molda bo‘lgan 10 bahrni, undan so‘ngra esa arab aruzshunosi Axfash tomonidan qo‘shilgan 1 bahrni hamda fors aruziylari tomonidan kiritilgan 3 bahrni keltirgan. Natijada aruz vaznining tarixiy o‘rishini ko‘rsatadigan o‘ziga xos shakl yuzaga kelgan. Risolada keltirilgan bu shakl uni aniqroq tasavvur qishiga yordam beradi. Fitrat o‘zi yaratgan sxemaga shunday tushuntirish beradi:

“...arab aruzida olti rukn (chtana)dan tuzilgan vaznlar eron aruzida sakkiz rukndan tuziladi; arab aruzi vaznlari sistemasiga ko‘ra 15 bahr bo‘lsa ham, so‘ngra Axfashdan bir bahr olib, 16 bahrga chiqarilgan. Eron aruzi bulardan 5 bahrni chiqarib, yana uchta bahr qo‘shib, 14 da to‘xtatadi. Keyinchalik, mashhur chiqarilgan 5 bahrda ham she’r yozilib, Eron aruzi 19 bahrga chiqariladi”.

Bu kabi aniqlik bilan aytilgan tarixiy o‘zgarishlarni hech bir aruzshunos tadqiqotida uchratmaymiz. Yuqorida aytilganidek, Fitrat an’anaviy aruz qoidalarini tushuntirishdagina bu usuldan foydalangan. O‘zi kashf etgan usul bo‘yicha ish tutilganda esa, bu o‘n to‘qqiz bahr asosida “oltilik, sakkizlik, to‘qquzlik, o‘nlik, o‘n birlik, o‘n ikkilik, o‘n uchlik, o‘n to‘rtlik, o‘n beshlik, o‘n

oltilik, o‘n sakkizlik, yigirmalikdan iborat 12 vazn (eskicha aruzchilar tili bilan aytganda 12 bahr)” chiqarilgan. Bu o‘n ikki bahrning har biridan qisqa, to‘liq hijolarning joy o‘zgarishlari bilan ayrim-ayrim vaznlar yig‘ilgan. Mana shu tariqa saksonga yaqin yangi tizimdagi vazn tartibga solingan.

Aruzshunoslikda bahrlarni bayon qilishda ma lum darajada yengillik tug‘dirish uchun juzvlarga nisbatan teng va o‘zaro bir-biriga o‘xshash bahrlarni jam qilib d o i r a l a r qabul qilingan bo‘lib, aruz ilmida 6 doira ma’lum. Fitrat bu usulni soddalashtirib, har bir bahrni o‘zi yuqorida bayon qilgan “to‘plam” va “bo‘lim”larga ajratib yuborgani uchun ham uning uslubiyatida doiralar o‘z-o‘zidan ahamiyatini yo‘qotgan.

Fitratning Navoiy va Bobur risolalaridan qoniqish hissi tuymaganini yana shunda kuzatish mumkinki, olimning aytishicha, ular arab va fors aruzi qonunlarini aynan olib, turkiy misollar bilan tushuntirganlar, xolos. Shuning uchun ham Navoiy va Bobur asarlarida turkcha misollar topilmagan o‘rinlarda forscha nazm parchalari keltirilgan. Fitratni ayni mana shu holatlar qanoatlantirmagan. Fitrat nazdida Navoiy turklikni o‘z ijodining mazmuni bilib, turk alfozini jahonda ustuvor qilishga bel bog‘lagan ekan, aruz ilmini ham o‘zbek tilining qonun qoidalariga bo‘ysundirishi kerak edi. Navoiy va Boburda ushbu amalni ko‘rmagan Fitrat bu vazifani o‘zi bajarishga harakat qiladi. Rukn o‘rniga “to‘plam” va “bo‘lim” atamalarini, afoyl-u tafoyil o‘rniga doira usulini qo‘llashni taklif etadi.

Aruz ilmi Markaziy Osiyoda Fitratga qadar ham mavjud bo‘lganidek, uning qatlidan keyin ham bu sohada ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, o‘tgan asrning 60-70-yillariga kelib aruzga doxil bir qancha asarlar e’lon qilindi. Bu sohada o‘zbek olimlaridan A.Rustamovning “Aruz haqida suhbatlar” (1972), Ummat To‘ychievning “O‘zbek she’riyatida aruz sistemasi” (1979), Anvar Hojiahmedovning “Aruz nazariyasi asoslari” (1979), “Maktabda aruz vaznini o‘rganish”, Safarboy Ro‘zimboevning “Aruzdan saboqlar” kabi risola va metodik qo‘llanmalari nashr qilindi.

Shulardan akademik Alibek Rustamov ham Fitrat taklifini qo‘llab, “chirmanda”ga o‘xshash usulni aruzshunoslikka tatbiq qilishga harakat qildi. Alibek Rustamov tavsiya qilgan usul Fitratnikidan ham birmuncha soddaroq bo‘lishiga qaramay, aruz amaliyotida ishlatilmadi.

Bizningcha, Navoiy va Bobur aruzshunosligi, xususan, “Mezon ul-avzon” va “Muxtasar” asarlari o‘z davrida, arab yozuvi asosidagi alifbo iste’molda ekanligi paytida juda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, adabiyotshunoslar va aruznavis shoirlar uchun zarur qo‘llanmalar sifatida ish bergan. Fitrat singari ularni arab va fors aruzshunosligi ta’siriga qattiq berilganlikda ayblash ham noto‘g‘ri harakat. Negaki, o‘sha davrlarda iste’moldagi alifbo arabcha bo‘lgach, uning fonetik qoidalari ham arablarnikiga yaqin edi. O‘zbek tili fonetikasi hozirgi darajada shakllanib, taraqqiy etmaganligi uchun ham ular arabcha tovush texnikasiga tayanib ish ko‘rishganlar.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning aruziy qarashlarini rad qilib, yangi turkiy aruzshunoslik yaratish g‘oyasi bilan chiqarkan, Fitrat munosabatining faqat bir o‘rnini, bo‘g‘inlarni aniqlashda, yani “qisqa” va “to‘liq”likni belgilash tamoyilini ma’qullash mumkin.

Fitratning bu boradagi izlanishlarini zamondosh olim Anvar Hojiahmedov davom ettirib, tilimizning zamonaviy fonetik qoidalari asosida hijolar sifatini belgilash qonuiyatlarini ishlab chiqdi, aruzshunoslikni “cho‘ziq”, “mutaharrik” va “sokin” harflar kabi o‘zbek tili fonetikasiga xos bo‘lmagan tushunchalardan xalos qildi.

## **II BOB. ADABIYOT DARSLIKLARIDA ARUZ SHE'RIY TIZIMIGA OID NAZARIY TUSHUNCHALARNING BERILISHI**

### **2.1. Adabiyot darsliklarida aruz nazariyasiga oid tushunchalar ifodasi**

Sho'rolar davrida va mamlakatimiz mustiqilligidan keyingi paytda ham aruz haqida nazariy qonun-qoidalar respublikamizda chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida ham o'z talqinini topdi. Masalaning murakkab, achinarli tomoni shundaki, qariyb barcha nashrlarda aruzning nazariy asoslari haqida yakdillik yo'q. Qolaversa, mualliflarning beparvoligidanmi yoxud, kitob nashriga daxldor, tahririyatda faoliyat ko'rsatuvchi turli lavozimlardagi xodimlarning aruz haqidagi tushunchalari butunlay yo'qligi yoki cheklanganligi uchunmi deyarlik hamma manbalarda xato va qusurlar talaygina topiladi. Mamlakatimizda aruz haqida nazariy bilimlarning sobit emasligi balki xuddi shu xil kamchiliklar bilan ham izohlanar.

Qo'limizda respublika "Fan" nashriyotida 1979-yilda chop etilgan "Adabiyot nazariyasi"ning 2-jildi. Kitobning "O'zbek she'r tuzilishi" bo'limi hurmatli adabiyotshunos Ummat To'ychiev tomonidan tayyorlangan. Muallif ushbu bo'limning aruzga bag'ishlangan qismini "Aruz quyidagi 5 ta qonun asosida ish ko'radi", deya boshlab, o'sha qonunlarni birma-bir izohlashga kirishadi:

1.Misralarning qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar tartibiga tayanishi va shuning uchun goho bo'g'in soni jihatidan teng bo'lmasligi qonuni.

2.Bo'g'inlarning ruknlarga uyushishi va so'z negizining ikki ruknga bo'linib ketish qonuni.

3.Ruknlarning she'riy nutqda ko'pincha ichki ritmik pauzalarga ega bo'lmasligi qonuni.

4.Aruz vaznlarining o'ziga xos tuzilishi qonuni.

5.Vaznlarning bahrlarga birikish qonuni.

6.Aruzning ham turkumlarga egaligi qonuni.

Izohlar uchun kitobda bor-yo'g'i 11 sahifa ajartilgan bo'lib, bu albatta, bunday nufuzli nashr uchun kamlik qiladi. Biroq bu yerda gap faqat berilgan

ma'lumotlarning miqdori haqida emas. Qayd qilingan qonuniyatlarning birinchisida qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar, ularning chizmadagi belgilari haqida tushuncha berilgan. So'ngra Alisher Navoiyning quyidagi bayti keltirilib, bo'g'inlarining qisqa-cho'ziqligi quyidagicha ko'rsatiladi:

*Olami ish / q ichra dardi / ng o'tdirur, haj / ring ham o't =15*

- V - - / - V - - / - V - - / - V - -

*Dardu hajring / so'zidin ko'ng / lumda ola / m olam o't =15*

- V - - / - V - - / - V - - / - V - -

Ushbu misoldan keyin mazkur baytning misralaridagi bo'g'inlar soni xuddi barmoq vaznidagidek tengligi, ularda o'ta cho'ziq hijolar ishlatilmaganligi xususida gapiriladi.

Bizningcha, mazkur o'rinda ushbu parcha noto'g'ri tahlilga tortilgan: birinchidan, kitobxon *vasl hodisasi* haqida ma'lumot olmasdan avval unga ro'para qilinmoqda; ikkinchidan, **“ishq”** so'zidagi **“q”**ning ikkinchi ruknga ko'chirilishi qonuniy bo'lgani holda, **“darding”**dagi **“ng”**ning, **“olam”**so'zidagi **“m”**ning navbatdagi ruknlarga ko'chirilishi aruz qonuniyatlariga ziddir. Nima uchun? Chunki *vasl*dan murod o'rnida kelmagan cho'ziq hijoni qisqaga, o'ta cho'ziq hijoni oddiy cho'ziqqa aylantirmoqdir. Masalan, keltirilgan parchada «ishq» so'zi tarkibidagi “q”ning ikkinchi ruknga o'tgani tabiiy hol. Negaki, ushbu rukn asosidagi **foilotun** oxirida “ishq” o'z holicha qoldirilganda **foiloton** shaklini olib, g'azal vazniga butunlay putur yetgan bo'lardi. Bunday ko'chish **vasl** hodisasi deb yuritilib, u bir rukn tarkibidagi so'zlarda ham uchrashi mumkin.<sup>1</sup> Lekin yuqorida keltirilgan misoldagi “darding” va “olam” so'zlarining oxirgi tovushlarining navbatdagi so'zga ko'chirilishi noo'rinligi vajidan ushbu g'azalning ifodali o'qilishiga ham sezilarli ravishda putur etgan. “Darding” so'zining “ding” bo'g'ini, “olam”ning ikkinchi bo'g'ini “lam” shunday holda ham cho'ziq bo'g'inlardir. “NG” va “m” tovushlarining ko'chirilishi natijasida ushbu bo'g'inlar qisqa bo'g'inga aylantirilgan bo'lsa edi, bu hol tabiiy va qonuniy harakat sifatida qabul qilinardi.

<sup>1</sup> Bu haqda qarang:Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. Toshkent, Sharq, 1998, 44-bet.

Muallif “aruzda unli bilan boshlanuvchi har qanday so‘z o‘zidan avvalda kelgan undosh tovushni o‘z tomoniga oladi” singari bir tushunchaga ega bo‘lsa kerakki, tahlilga tortilgan barcha misollarda shu yo‘sinda xatolikni ko‘rishimiz mumkin. Hamid Olimjon qalamiga mansub “Yigit” she‘ridan olingan parcha taqtesini shunday belgilaydi:

*Yovni eng-u, / ertaroq kel, / ko‘p sog‘indi / k o‘zimiz,*  
 - V - - / - V - - / - V - - / - V - -  
*Qalbimizda / muntazirdi / r eng muqaddas / so‘zimiz.*  
 - V - - / - V - - / - V - - / - V - -  
*Kecha-kundu / z intizormiz, / yo‘llaringda / ko‘zimiz,*  
 - V - - / - V - - / - V - - / - V - -  
*Senga zordir / gul, chamanlar, / bo‘stonlar, / bog‘lar.*  
 - V - - / - V - - / - V - - / - V - -

Mazkur misolda ham “sog‘indik” so‘zidagi “k”, “muntazir”dagi “r” va “kunduz” so‘zining oxirgi tovushi “z” noto‘g‘ri tarzda navbatdagi rukn tarkibiga ko‘chirilgan. Chunki ular ishtirokidagi bo‘g‘inlar avval ham oddiy cho‘ziq hijolar edi, ko‘chirilgach ham shunday bo‘lib qoldi. Vaholanki, vasldan murod yuqorida ta’kidlaganimiz – biror bo‘g‘inni vaznga bo‘ysundirish maqsadida sifat jihatdan o‘zgartirishdir. Demak, yuqoridagi “vasl”lar bemaqsad, ta’kidlaganimizdek, noilmiy qarashlar samrasidir.

Kitobda qayd qilinib, izohlangan ikkinchi qonun talqinida yanada jiddiyroq qusurga duch kelamiz. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “O‘zbek xotin-qizlariga” g‘azalining matlasi quyidagicha taqte etiladi:

*Keldi ochi / lur chog‘i / o‘zliging na / moyon qil,*  
 - V - V / - - - / - V - V / - - -  
*Parchalab ki / shanlarni / har tomon pa / rishon qil.*  
 - V - V / - - - / - V - V / - - -

Birinchi, baytni bu holda ifodali o‘qishning hech bir iloji yo‘q. Xolbuki, ruknlar aruzdagi asarlar o‘qilishining hal qiluvchi omillaridan sanaladi.

Barmoqda turoq qanday to‘xtam (pauza) bilan o‘qilsa, aruzda ruknlar ham shunday to‘xtamlar hosil qiladi.

Ikkinchidan, birinchi o‘rinda kelayotgan rukn “- V – V” - “foilotu” “foilotun”ning “makfuf” ko‘rinishidir; ikkinchisi esa, “- - - ” – “mafuvlun” “mafoiylun”ning “axram”idir. Demak, baytni yuzaga keltirishda asosan “foilotun” va “mafoiylun” ruknlari ishtirok etishgan, degan xulosaga kelinadi. Aruz amaliyoti tarixida esa, hech qachon foilotun va mafoiylun ruknlari birikuvidan bahr hosil bo‘lganligi kuzatilmagan. Bundan taqte qilishda xatoga yo‘l qo‘yilgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Aslida taqte bunday amalga oshirilishi kerak edi:

*Keldi o / chilur chog‘i / o‘zliging / namoyon qil,*

- V - / V - - - / - V - / V - - -

*Parchalab / kishanlarni / har tomon / pa rishon qil.*

- V - / V - - - / - V - / V - - -

Mana endi g‘azal ifodali ham o‘qiladi. Qaysi bahrning qaysi tarmog‘ida – vaznida yozilgani ham aniq: birinchi o‘rindagi “foilun” – “mafoiylun”ning “ashtar” tarmog‘i, ikkinchi o‘rinda rukn esa, “mafoiylun”ning o‘zi, yani solimi. Demak, g‘azal mafoiylun rukni asosida – *hazaj* bahrida yaratilibdi. Uning vazni esa, **“Hazaji musammani ashtari solim”**dir.

Xuddi mana shu qonuniyat talqinida o‘qiymiz:

“Ruknlar o‘lchov jihatdan 6 bo‘g‘inligacha:” deyilib, bir bo‘g‘inli ruknlar to olti bo‘g‘inligacha misollar (aniqrog‘i ularning chizmasi) keltiriladi. Oxirida “Olti bo‘g‘inli rukn:” sifatida “V V - V - - ” chizmasi taqdim etiladi.

Muallifning bir bo‘g‘inli rukn sifatida “V” bitta qisqa hijoni va olti bo‘g‘inli rukn o‘rnida yuqoridagi chizmani misol sifatida keltirishi aruz amaliyotiga ziddir. Negaki, aruz tajribasi tarixida bitta qisqa bo‘g‘in alohida rukn sifatida mavjud bo‘lganligi kuzatilmagan hodisadir. Tarmoq ruknlar orsida ham bu xil rukn yo‘qligi ham fikrimizni isbotlaydi. Olti bo‘g‘inli rukn haqida ham xuddi shunday mulohazalarni bildirish mumkin.



Taniqli nazariyotchi adabiyotshunos akademik Izzat Sultonovning 1980-yilda “O‘qituvchi” nashriyotida chop qilingan “Adabiyot nazariyasi” darsligida ham “Aruz nazariyasi” bo‘limi mavjud bo‘lib, bunda mazkur she‘riy tizimga tegishli nazariy qarashlar muallif o‘zi qayd qilganidek, “Alisher Navoiy talqinida” ochib beriladi.

Bo‘g‘inlar sifatini belgilashda arabiy fonetika qoidalarining qo‘llanilishi, asil va tarmoq ruknlarining son jihatdan bugungi qarashlardan butunlay farq etishi kabi murakkabliklar ushbu darslikdan foydalanish imkonini cheklaydi.

Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Hotam Umurovning 2004-yil A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida vazirlik tomonidan “Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan” “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida ham aruz she‘riy sistemasi haqida nazariy ma‘lumotlar berilgan. Ushbu manbada bor-yo‘g‘i 6 sahifa ichida aruzga doxil qoida va jadvallar havola qilinadi. Kitob muallifi bu o‘rinda ham o‘z nazariy axborotlarini “aruziylar so‘zlarni bo‘g‘inlarga emas, balki harflarga bo‘ladilar”, harflar o‘z navbatida “mutaharrik” (harakatli) va “sokin” (harakatsiz)” bo‘lishi haqidagi ma‘lumotlar bilan boshlaydi.<sup>1</sup>

I.Sultonov yaratgan “Adabiyot nazariyasi”dagi aruzga oid aqidalarga tayanib ish ko‘rgan H.Umurov ko‘p so‘zlilikdan qochib, yukni asosan jadvallar zimmasiga tashlaydi.

1-jadval “Harflar” deb atalib, unda harflarning turlari, ulardan paydo bo‘ladigan juzvlar, juzvlar qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan ruknlar va ularning tarkibiy tuzilishi haqida ma‘lumotlar aks etgan va ularga misollar keltirilgan.

Bo‘g‘inlar soniga emas, harflar sanog‘iga asoslanish noto‘g‘ri tamoyil ekanligi ushbu jadvaldayoq o‘zini oshkor qilib turibdi.

Jadvaldagi *fosilai sug‘roga* ajratilgan katakchada o‘qiymiz: “avvalgi uch harfi harakatli va so‘nggi bir harfi harakatsiz to‘rt harfli so‘zlar: Mirkarim ( m r k m )”. Birinchidan, “Mirkarim”da to‘rtta emas beshta harf mavjud – m, r, k, r, m; ikkinchidan ushbu so‘z – “Mirkarim” fosilai sug‘roga misol bo‘la olmaydi,

---

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2004, 191-bet.

negaki, uning afoyli: “ - V - ” ko‘rinishidir. Fosilai sug‘ro ifodasi uchun esa, “V V - ” ko‘rinishidagi afoyl kerak.

Darslikda Alisher Navoiy qalamiga mansub “Ul ko‘zi qaro dardu g‘amidin chidamadim” jumlasidan foydalanib, juzvlar va ular tarkibini izohlashga harakat qilinadi. Taassufki, bu harakat umuman natijasiz chiqqan: olti juzv talqinidan uchtasi, to‘ppa-to‘g‘ri yarmida xatoga yo‘l ochilgan. Keling muallif izohini boshdan-oyoq kuzataylik. Kitobdan ko‘chirmalarni qora harflarda yozdik:

“**Ul**” - **sababi hafif** ( - ). Juda to‘g‘ri.

“**Ko‘zi**” - **sababi saqiyl** ( - V ). Noto‘g‘ri – *ikkita qisqa* bo‘g‘in qo‘shiluvidan *sababi saqiyl* yuzaga keladi. Bu o‘rinda birinchi bo‘g‘in ham qisqa, so‘zning paradigmasi “V V” ko‘rinishida bo‘lishi kerak.

“**Qaro**” - **vatadi majmu** ( V - ). To‘g‘ri.

“**Dardu**” - **vatadi mafruq** ( - - ). Bitta cho‘ziq va bitta qisqa bo‘g‘inlar birikib vatadi mafruqni yuzaga keltiradi. Bizga taqdim qilinayotgani ikkita sababi hafifdir. Vatadi mafruq “- V” shaklida bo‘lishi kerak.

“**G‘amidin**” - **fosilai sug‘ro** ( V - - ). Odatdagi fosilai sug‘ro ikkita qisqa va bitta cho‘ziq bo‘g‘in qo‘shilmasidir. Bu o‘rinda vatadi majmu bilan sababi hafif aks ettirilgan. Fosilai sug‘ro “V V - ” ko‘rinishida bo‘ladi.

“**Chidamadim**” - **fosilai kubro** ( V V V - ). To‘g‘ri.

2-jadval solim ruknlar, ularning paradigmalari va ulardan tashkil topgan bahrlar haqidagi ma‘lumotlarga bag‘ishlangan. Jadvalga ruknlarni yuzaga keltirgan juzvlar haqidagi axborot ham sig‘dirilgan.

Afsuski, bu jadvalda ham xatolar g‘uj-g‘uj. Mana ulardan namunalar:

- *foilotun* rukni tarkibi «Sababi hafif» va “vatadi majmu”dan iborat deb ko‘rsatilgan. Xolbuki, u **ikkita** “sababi hafif” va bitta “vatadi majmu”dan tashkil topgan;

- asil ruknlarning sakkizinchisi sifatida “Mafulotun” “- - - V - ” ko‘rinishidagi unsur tavsiya qilinadiki, bunday birlik aruz amaliyoti tarixida uchramagan. Mazkur ruknning tegishli o‘rnida bahr qayd etilmaganidan bilish

mumkinki, muallif bizga ushbu unurni “Mafuvlotu” rukni sifatida taqdim qilayotir. Shunday bo‘lsa, ushbu rukn yozilishida bir yo‘la ikkita xatoga yo‘l qo‘yilgan: birinchisi – “maf”dan keyin ajratish belgisi – “ ’ ” qo‘yilishi kerak edi. Shunday qilinmagach, “ma” ochiq ko‘rinish olib, qisqa bo‘g‘inga aylanib qolgan, natijada foilotunning maxbun ko‘rinishi hosil bo‘lgan: “V V - -”; ikkinchisi – rukn paradigmasi ham bee’tibor chizilgan. Malumki, besh bo‘g‘inli asil ruknlar faqat ikkita – mafoilatun va mutafoilunlar. Jadvaldagi “- - - V -” ko‘rinishdagi rukn va paradigma esa, yo‘q, shu kungacha kuzatilmagan.

Darslikda “Ba’zi bahrlarga misollar” sarlavhasi ostida 4-jadval taqdim etiladi. Unda hazaj bahrlarning musaddasi maqsur vazniga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan olingan:

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,

Bilib tadqiqini kasb etmagan ilm, -

bayti keltiriladi. E’tirof etish kerak misol to‘g‘ri tanlangan va durust taqte qilingan. Biroq ruknlarning yozilishi va paradigmasida yana xatolar doimiy yo‘ldoshimizga aylangan. “Mafoiylun” rukni “mafoilun” tarzida, “mafoiyl” esa, “mafoil” ko‘rinishida talabaga taqdim etilgan. Bir qarashda juziy ko‘ringan bu qusurlar katta yanglishish samarasi ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki bu rukn va paradigmalari butunlay boshqa ma’no kasb qilib, o‘quvchida butunlay boshqacha taassurot qoldiradi. Chunonchi “mafoilun” “mafoiylun” ruknining “maqbuza” tarmog‘idir. “Mafoiyl” o‘rnida taqdim etilgan “mafoil” esa, amaliyotda umuman qo‘llanilmaydigan unsur. Mabodo uning tarkibidan kelib chiqib, paradigmasini belgilaydigan bo‘lsak, “V - -” ko‘rinish kasb etadi. Tasodifni qarangi, bu muallif paradigmasiga to‘g‘ri keladi. Lekin bu shakl ta’kidlanayotgan “hazaji musaddasi maqsur”ni anglatmaydi. Balki “hazaji musaddasi maqbuzi mahzuf”ni ifoda etadi. Gap shundaki, bayt ruknlari “mafoiylun” paradigmasida, “mafoiyl” esa, paradigmasida ham rukn sifatida ham to‘g‘ri inikos topmagan.

Taniqli adabiyotshunos, bir necha darslik va o‘quv qo‘llanmalarining muallifi To‘xtamurod Boboevning 2002-yilda nashrdan chiqqan

“Adabiyotshunoslik asoslari” kitobida ham aruz she’riy sistemasiga oid nazariy ma’lumotlar berilgan. Fonetik birliklardan to aruz doiralarigacha qamrab olingan ushbu manbada ham arabiy-forsiy qonun-qoidalar asosida ish ko’rilgan. “Mutaharrik va sukun harflar” lavhasi ostida berilgan tushuntirishlarga qaramay, ushbu holat talaba uchun qiyinchilik tug’diradi. Bu manbadagi izoh va tushuntirishlar yanada murakkabroq yo’l tanlangan ko’rinadi. Xususan, aksariyat manbalarda cho‘ziq hijolar tasnifot qilinmagani holda ushbu darslikda ular “tabiatiga ko’ra cho‘ziq” va “holatiga ko’ra cho‘ziq” hijolarga bo‘linib o’rgatiladi. Eng achinarlisi, ushbu sohada mutaxassislar bo‘lib chiqishi kutilayotgan talabalarga mo’ljallangan mazkur kitobda ham jiddiy xatolar talaygina. Mana ulardan ayrimlari:

Muallif 239-betda o’ta cho‘ziq hijo haqida gapirib, misra ichida va oxirida qanday ishora bilan belgilanishi ta’kidlamochi bo’ladi, ammo maqsadga erishilmaydi. Negaki “misra oxirida kelsa:” deyiladi-yu, ikki yondan qo’yilgan qo’shtirnoqdan boshqa hech qanday ishora taqdim qilinmaydi.

Keyin Boburdan misol keltiriladi:

Yoz fas-li, yor vas-li, do‘st-lar-ning suh-ba-ti,  
 - V - - - V - - - V - - - V ~  
 She’r bah-si, ishq dar-di, bo-da-ning kay-fi-ya-ti  
 - V - - - V - - - V - - - V ~

To’g’ri, “yoz”, “yor”, “do’st”, “she’r” va “ishq” so’zlari o’ta cho‘ziqlikning eng yorqin namunalaridir. Ammo bayt paradigmasida ikkita jiddiy xato mavjud: birinchisi – misralarda hijolar soni teng bo’lgani holda ularni farqli belgilash, yani bu erda birinchi misra – 15, ikkinchi misra – 14 hijo sifatida ko’rsatilmoqda; ikkinchisi oxirgi hijolarni o’ta cho‘ziq bo’g’inlar sifatida ko’rsatilmoqda.

245-betda mafoiylun rukni tarmoqlari haqida tushuncha berarkan, muallif yozadi: “1) “**qabz**” - mafoiylundan “iy” qisqartiriladi – mafolun qoladi;”

Diqqat qarataylik: mafolun qoldi, demak, “V - - ”ga teng birikma hosil bo‘ldi. Endi hosil bo‘lgan furular xususida taqdim qilinayotgan birliklarga ko‘chamiz: “1) mafoilun ( V – V V ) – maqbuZ;”

Birgina maqbuZning yozilishi va paradigmasida yanglishishlar shunchalar: a) “fo”dan keyingi ajratish belgisi – “” qayerdan kelib qoldi? Bu belgi “fo”ni o‘ta cho‘ziqqa aylantiradi. Natijada maqbuZ emas, “V - V V –” tarzida hech joyda yo‘q birlik hosil bo‘ldi; b) maqbuZ tarmog‘i paradigmasi. Bu belgilar muallif qayd qilgan xato “mafoilun”ni ham aks ettirmaydi; v) yanglish tasavvur natijasida “fo” oddiy cho‘ziq bo‘g‘in sifatida qabul qilingan ekan, “lun” qaysi aqidaga ko‘ra qisqalik ishorasi – “V” bilan belgilanmoqda?

Faqatgina mafoiylun rukni tarmoqlari talqinida mana qancha xatolar borligini ko‘zdan kechiraylik:

**Berilgan: mafoiylu (V - - -) makfuf;**

Bo‘lishi kerak: mafoiylu (V- - V) makfuf;

**Berilgan: mafulu (V - V) axrab;**

Bo‘lishi kerak: mafulu (- - V axrab;

**Berilgan: faulun (- V -) mahzuf;**

Bo‘lishi kerak: faulun (V - -) mahzuf;

**Berilgan: mafoiyl (V -) maqsur;**

Bo‘lishi kerak: mafoiyl (V - ~) maqsur;

**Berilgan: faul (V -) axtam;**

Bo‘lishi kerak: faul (V ~) axtam.

Guvohi bo‘layotganimizdek, mafoiylun rukni tarmoqlarining teng yarmi (12 tadan oltitasi) noto‘g‘ri talqin qilinmoqda. Foilotun asil ruknining tarmoqlarining paydo bo‘lishiga oid ma‘lumotlarda ham ahvol deyarli o‘zgarmagan - 15 ta tarmoq ruknning 7 tasi o‘zining yanglish talqiniga ega.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalarda aruz haqida nazariy ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kim uchun yaratilayotganidan qat‘i nazar, ularni bir muallifga topshirib qo‘yish yaramaydi. Negaki, muallif ko‘pincha bir sohaning olimi sifatida fikrlaydi. “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyotshunoslikka kirish” va

“Adabiyot qoidalari” kabi keng qamrovli kitoblarni yaratish bir kishining qo‘lidan kelavermaydi.

Yuqorida ta’kidlangan xatolar bir qarashda mayda-chuyda texnik xarakterdagi masaladay, ular haqida gapirish esa, maydachilikday ko‘rinishi mumkin. Shu o‘rinda bir narsani qayd qilish lozimki, aruzga doxil xatoning maydasi yo‘q, ayniqsa, u talabaga, o‘rganuvchiga yo‘naltirilgan manbalarda bo‘lsa. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ahvoli shu bo‘lsa, uni o‘rganuvchi o‘quvchilardan nimani kutish mumkin? Bu xil savollarga javob berish vaqti keldi. Javob - mukammal darslik bo‘lishi kerak, kamchiliklardan, chalkashliklardan holi, o‘zbek aruzi nazariy masalalarini yorituvchi muxtasar darslik bo‘lishi kerak.

Shundagina milliy madaniy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo‘lgan bezavol adabiy merosimiz, zamondoshlarimizning ma’naviy dunyosini, badiiy-estetik olamini, ong-u shuurini boyitadigan she’riyatimizni qadrlagan, ushbu merosga ma’naviy huquqli voris bo‘la olamiz.

## 2.2. “Adabiyot qoidalari” darsligida nazariy ma’lumotlar ifodasi

Akadamik litseylar o‘quv dasturiga kiritilgan “Adabiyot qoidalari” fanida aruz she’riy tizimini o‘rganishga 16 soat vaqt ajratilgan. Ularning 8 soatida sof nazariy masalalarni o‘rganish, yana 8 soatida aruz vaznida yoziladigan she’r shakllarini o‘rganish ko‘zda tutilgan. Negadir bu vaqt mobaynida o‘rganiladigan mavzular namunaviy dasturda alohida ajratib ko‘rsatilmagan. Shuning uchun biz birinchi 8 soatlik, yani nazariy bilimlarga ajratilgan vaqt byudjetini quyidagicha taqsimlashni tavsiya qilamiz:

- 1.Kirish. Qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolar. (2 soat);
- 2.Ruknlar, ularning tarkibi va turlari. (2 soat);
- 3.Bahrlar, ularning tarkibi va turlari. (2 soat);
- 4.Taqte. Vaznlar. Vazn va janrlar munosabatlari. (2 soat).

Albatta, aruz sistemasining barcha nazariy masalalarini o‘rganishni ushbu sakkiz soatga sig‘dirish juda mahol ish. Shu sababli o‘qituvchi vaqtdan unumli foydalanishi, bolalarning ushbu yoshdagi ong-tushunchalarini e’tiborga olgan holda masalalar mohiyatini ochishga intilishi zarur. Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi aruz nazariyasiga bag‘ishlangan dastur va darsliklarga tayangan holda ish ko‘rish ko‘pgina murakkabliklar keltirib chiqaradi. Negaki, ularning aksariyati arab-fors aruzshunosligi asosida yaratilgan qoidalardan kelib chiqqan holda yaratilgan. Masalan, ishimizning kirish qismida tilga olingan dasturda shunday qaydlarning guvohi bo‘lamiz:

“Aruz vazni birliklari. Harakatli va sukun harf (tovush)lar. Ularning yordamida yuzaga kelgan hijolar. Arab aruzida hijo turlari: qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq. O‘zbek aruzidagi usullar”.<sup>1</sup>

Birinchiidan, “Aruz vazni birliklari” deganda nima nazarda tutilmoqda? Hijomi, ruknmi, sabab-vatad-fosilalarmi, bahrmi? Ushbu tushunchalarning har bittasini “birlik” atamasi bilan nomlashimiz mumkin. O‘qituvchi bularning qaysi birini tanlashi va darsda o‘rganishni bilmay gangib qolishi tabiiy. Qolaversa, ushbu tushunchalarning istagan birini bu o‘rinda o‘rganish maqsadga muvofiq

---

<sup>1</sup> Akademik litseylarning ijtimoiy gumanitar fanlar va horijiy filologiya yo‘nalishidagi tarmoq talim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o‘quv dasturlari. T., 2005, 122-bet.

emas. Negaki, aruz nazariyasida va umuman she'rshunoslikda ma'lumotlarni eng kichik birlikdan – tovushlar va ulardan hosil bo'ladigan bo'g'inlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, “harakatli va sukun harf (tovush)lar” tushunchasi zamonaviy o'zbek aruzshunosligiga umuman yot masalalardir. Professor Hotam Umurov tomonidan yaratilgan “Adabiyot qoidalari” o'quv-qo'llanmasida ham mana shu xil o'rinlarni uchratishimiz mumkin:

“Ma'lumki, aruziyalar so'zlarni bo'g'inlarga emas, balki harflarga bo'ladilar. Harflar ikki xil: *mutaharrik (harakatli)* va *sokin (harakatsiz)*dir”.

Atigi uch qatordan iborat ushbu parchada o'quvchi ikkita yangi atamaga duch kelmoqda - “mutaharrik” va “sokin”. Garchi mazkur so'zlarning ma'nosi qavs ichida keltirilayotgan bo'lsa ham, akademik litsey talabasi ularni to'la tushunib, mazmun-mohiyatini anglashi uchun o'qituvchisining arab tili fonetikasi bo'yicha kamida yarim soatlik ma'ruzasini tinglashi kerak. “So'zlarni bo'g'inlarga emas, harflarga” bo'lishning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilmoq uchun ham ozmuncha vaqt talab qilinmasa kerak.

Uchinchidan, dastur muallifining “O'zbek aruzidagi usullar” deganda nima ko'zda tutayotganini bilib bo'lmaydi. To'g'ri, arab, fors va o'zbek aruzi va aruzshunosligida turli tafovutlar mavjud. Lekin “usul” atamasining zamirida “qonun”, “qoida” ma'nolarining borligini e'tiborga olsak, bu o'rinda o'zbek aruziga xos hamma farqli jihatlarni o'rganish lozim bo'ladi. Bu esa, imkoniyatdan tashqari talabdir.

Zamondosh aruzshunoslar tomonidan she'riy sistemani o'rganishning nisbatan oson usullari ishlab chiqilgan bir davrda qo'llanma muallifining bu xil yo'l tutishi – iste'moldagi alifbolarga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan izohlash variantini tanlagani g'ayrimantiqiy harakatdir.

Qisqasi, adabiyot dasturlarini tuzish va darsliklardagi mumtoz she'riyat poetikasi masalalarini yoritishda mualliflar o'z bilganlaricha harakat qilmasdan, soha mutaxassislari bilan bahamjihat va bamaslahat ish ko'rsalar, taqdim qilinayotgan materiallarni o'zlashtirish, milliy qadriyatimizning ajralmas qismi



bo‘lgan ajdodlarimiz ma’naviy boyliklaridan bahra olishimiz birmuncha osonlashgan bo‘lardi.

E’tirof etish kerakki, aruzshunoslik kutubxonasi bu qadar boyligiga qaramay, mumtoz she’riyat poetikasining ushbu sohasi bo‘yicha bilimdonlar juda kam. Bunday vaziyatning yuzaga kelishiga sabab esa, bizningcha, faqat bir omil – metodist va adabiyotshunos olimlarning masalaga nisbatan e’tiborsiz munosabatda bo‘layotganidir.

Aruz nazariyasi tarixi ko‘rsatadiki, mazkur sistema avval arab, keyinchalik fors, undan keyin turkiy xalqlar adabiyotlarida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Masalaning aruzni o‘rganish bilan bog‘liq jihati shundaki, bugungacha yaratilgan barcha monografiya, risola, darslik va qo‘llanmalarda aruzshunoslik tarixi haqida sharh berilibgina qolmay, bizning she’riyat bilan mutlaqo aloqasi bo‘lmagan, arab-fors aruzi uchun xarakterli bo‘lgan masalalar ham yoritilib, o‘rganilishi talab qilib kelinmoqda.

Ustoz aruzshunoslardan biri to‘g‘ri takidlaganlaridek, "...o‘zbek aruzi uchun xos bo‘lmagan qoidalar, bahrlar, o‘zgarishlar, vaznlarni o‘zlashtirish ortiqcha vaqt sarflashdan boshqa narsa emas. Shuning uchun... o‘zbek aruzi qoidalarinigina, she’riyatimizda foydalanilgan va foydalanilayotgan bahrlar hamda vaznlarnigina o‘rganish" maqsadga muvofiqdir. O‘zining "Maktabda aruz vaznini o‘rganish" kitobida yuqoridagilarni ta’kidlagan A.Hojiahmedov negadir shu risolaning o‘zida ham, aruzshunoslikka doir boshqa kitoblarida ham "o‘zbek aruzi uchun xos bo‘lmagan qoidalar"ni o‘quvchilar diqqatiga havola qiladi. Xususan, o‘zbek aruziy she’riyatida 11 bahr mavjudligi holda, ushbu risolaning o‘zida 19 bahr va ularning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar beriladi.<sup>1</sup>

O‘quvchi va talabalar o‘rganishi uchun tavsiya qilinayotgan darslik va qo‘llanmalarda zamonaviy o‘zbek yozuvi (krillitsa va lotin alifbolari asosidagi) va fonetikasi xususiyatlarini mutlaqo e’tiborga olmagan holda "ishlab chiqilib",

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. T., O‘qituvchi, 1995.

taqdim qilinayotgan qoidalar mavjudligi she'riy tizimni o'rganishni yanada murakkablashtiradi.

Biz yuqorida taklif qilgan mavzularni yoritishda darslik va dasturlardagi mana shu xil kamchiliklarni e'tiborga olishni ham maslahat bergan bo'lardik. Bu xil qusurlardan holi mashg'ulotlar mazmunini baqodir hol, imkoniyat darajasida ishlab chiqib, diqqatingizga xavola qilamiz. Ushbu maqsadimizni yuqorida taklif qilgan mavzularni o'tish va o'rganish bilan bog'lagan holda amalga oshirishga intilamiz. Shunday qilib, birinchi mavzu:

**Kirish. Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolar. (2 soat);**

“Aruz” atamasining mazmuni. Aruz she'riy sitemasining vujudga kelishi. Aruz–mumtoz she'riyatimizning asosiy she'riy tizimi sifatida. Aruzshunoslikning paydo bo'lishi. Arab, fors va turkiy xalqlar aruzshunosligining yirik vakillari.

Qisqa hijo, uning ikki turi, paradigmadagi belgilari.

Cho'ziq hijo va uning uch turi, paradigmadagi belgisi.

O'ta cho'ziq hijo, uning ikki turi, paradigmadagi belgilari.

Hijolar bilan bog'liq hodisa va holatlar.

O'qituvchi vaqtdan unumli foydalanish niyatida hijolar va ularni ifodalovchi misollarni grafik ko'rgazmali qurol sifatida uyda tayyorlab kelishi va dars jarayonida (masala ustida so'z borayotganda) auditoriyaga ilib qo'yishi yoxud zamonaviy texnologiya yordamida ekranda namoyish etishi mumkin.

**Ruknlar, ularning tarkibi va turlari (2 soat)**

Atamaning lug'viy mazmuni. Ruknlarning ikki xil sabablar, ikki xil vatadlar va ikki xil fosilalardan tashkil topishi. Ruknlarni hosil qiluvchi bu xil unsurlarning tarkibiy tuzilishi, ularning paradigmalari.

Solim (asosiy) ruknlar. Ularning yetti turi (Fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustafilun, mafuvlotu, mutafoilun) haqida ma'lumot.

Tarmoq ruknlar. Bu xil ruknlarni yuzaga keltiruvchi zihoflar. Mafoiylun rukni tarmoqlari. Foilotun rukni tarmoqlari. Mustafilun, mafuvlotu, fauvlun, foilun ruknlarining tarmoqlari va ularni hosil qiluvchi o'zgarish – zihoflar.

Ushbu mashg‘ulot o‘qituvchidan juda katta tayyorgarlik talab qiladi. Solim ruknlar va ularning paradigmalari, tarmoq ruknlar va ularni maydonga keltiruvchi zihoflar, ularning o‘zbekcha ma’nolari, paradigmalari aks ettirilgan murakkab jadvallar ifodalangan ko‘rgazmali qurollar – slayd va grafik ko‘rgazmalar tayyorlanib, dars jarayonida namoyish qilinadi.

Monografiyalar, risolalar, darslik va qo‘llanmalarda solim ruknlar soni sakkizta deb ko‘rsatilishiga qaramay, nima sababdan ular soni 7 ta deya qayd qilinmoqda, degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. Bunga javobni yana o‘sha aruzshunos ustozlar asarlaridan topamiz:

“Shunday qilib, aruzning 19 bahri bilan tanishdik. Hazaj, rajaz, ramal, mutaqorib, hafifi, mujtass, sari bahrlari o‘zbek shoirlari ijodida keng qo‘llangan, mutadorik, komil, munsarih bahrlarida yaratilgan she’rlar unchalik ko‘p emas. Ulardan sakkiztasi, xususan vofir, muqtazab, tavil, madid, basit, qarib, mushokil, g‘arib bahrlaridan she’riyatimizda foydalanilmaydi”.<sup>1</sup>

Iqtibosda she’riyatimizda foydalanilmaydigan bahrlar qatorining birinchi o‘rnida vofir bahri turibdi. Ushbu bahr manbalarda sakkizta rukndan bittasi sifatida o‘rganilib kelinayotgan *mafoilatuning* takroridan hosil bo‘ladi. Mazkur bahr ishlatilmas ekan, uni yuzaga keltiruvchi rukn *mafoilatun* ham istifoda qilinmasligi tayin. Shunday ekan, ularni dastur va darsliklarga kiritib, shundoq ham o‘rganilishi qiyin bo‘lgan aruz nazariyasini murakkablashtirishdan nima foyda?! Shu singari mulohazalar bilan biz *mafoilatunsiz* solim ruknlar qatorini – 7 ta ruknni o‘rganish bilan cheklanishni tavsiya qilamiz.

Shuni alohida takidlash kerakki, ushbu juft soatda o‘quvchiga tavsiya qilinayotgan axborotlar ko‘lami g‘oyat kattaligi tufayli uni o‘zlashtirish ularda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli o‘tilgan materiallarning hammasini bir yo‘la o‘zlashtirib olish o‘quvchilardan talab qilinmagani ma’qul.

O‘quvchilar dars jarayonida tavsiya qilinayotgan ma’lumotlarni (jadvallarni ham) daftarlariga ko‘chirib olib, ulardan keyingi mashg‘ulotlarda,

---

<sup>1</sup> Hojiaxmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent, Sharq, 1999, 131-bet.

mumtoz adabiyot saboqlarida foydalanishlari uqtiriladi. Bu usul berilgan bilim va ko'nikmalarning asta-sekinlik bilan o'zlashtirilib borilishini taminlaydi.

### **Bahrlar, ularning tarkibi va turlari (2 soat)**

Muayyan ruknlar, ular tarmoqlarining o'zlari va boshqalari bilan qo'shib, muayyan tartibda takrorlanishi natijasida bahrlarning hosil bo'lishi.

Bir xil ruknlardan tashkil topadigan bahrlar: mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil bahrlari, ularning murabba, musaddas va musamman ko'rinishlari.

Ikki xil ruknning ketma-ket takroridan paydo bo'ladigan bahrlar: muzore, hafif, mujtass va munsarih bahrlari.

Ikki bir va bitta ikkinchi xil rukn birikuvidan yuzaga keladigan bahr: sari. Sari bahrining faqat bir ko'rinishi – musaddas shakli mavjudligi va buning sababi.

So'nggi paytlargacha 19 bahrning o'rganib kelingani, ularning 11 tasini o'rganish maqsadga muvofiqligi.

### **Taqte. Vaznlar. Vazn va janrlar munosabatlari (2 soat)**

Taqte atamasi. Uning qoidalari (vasl, imola, tag'yir,azl) haqida ma'lumot. O'zbek she'riyatida qo'llaniladigan faol vaznlar. Vaznlar xilma-xilligini yuzaga keltiruvchi omillar. Ruboiy vaznlari, ularning turlari. Ruboiy misralarining bir xil bo'lmagan, ammo yaqin vaznda bo'lishi mumkinligi. Tuyuqlar vazni, uning cheklanganligi.

**Izoh:** Garchi harakatdagi dasturda aruz doiralari haqida ma'lumot va bilim berish nazarda tutilgan bo'lsa ham, biz ularni mashg'ulotlar rejasiga kiritmadik. Bizningcha, aruz ilmidagi mazkur tushunchalar faqat nazariy xarakterda bo'lib, hech qanday amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Ular faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun naf beradi, degan mulohaza bilan shunday yo'l tutishga jazm qildik.

### **2.3.Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida nazariy tushunchalar berilishi**

Ta'lim tizimida adabiyot o'qitishning asosiy vazifalardan birini o'quvchilarni she'riy asarlarni o'qishga o'rgatish, ularni shoirlarimiz ijodida qo'llanilgan xilma-xil vaznlarning ritm-ohang xususiyatlari, she'riyatimizda qo'llanish ko'lami, mualliflarning har qaysi she'riy o'lchovdan mohirona foydalanish san'ati bilan tanishtirish, binobarin vaznning badiiy asardagi o'rni haqida muayyan bilim va malaka hosil qilish tashkil etadi. O'quvchilar adabiyotimizning ko'p asrlik tarixini o'rganish jarayonida rang-barang she'riy o'lchov tizimlari haqida ma'lumot oladilar, ulardan har birining o'ziga xos jihatlari, turli xil vaznlarini ko'zdan kechiradilar. Xususan, adabiyotimizda ming yildan buyon qo'llanib kelingan aruz o'lchov tizimi xususiyatlarini atroflicha o'zlashtiradilar.

Aruz she'riy tizimi haqidagi ma'lumot 5-sinf darsligida uchraydi. Usmon Nosir hayoti va ijodi o'rganilgandan keyin "She'r haqida tushuncha" mavzusidagi quyidagi nazariy ma'lumotlar joy olgan:

"O'zbek mumtoz she'riyatini asosan, aruz vaznida yozilgan she'rlar tashkil etadi. Aruz vazni hijolarning cho'ziq va qisqaligiga asoslanadi. Misra va baytlarda cho'ziq va qisqa hijolarning o'zaro mutanosib ravishda takrorlanib kelishi o'ziga xos musiqiylikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham aruz vaznida yozilgan she'rlar (g'azal, masnaviy, ruboiy, murabba, muxammas, musaddas va hokazo)da ohangdorlik juda kuchli bo'ladi".<sup>2</sup>

Bundan keyingi darsliklarda aruz vazniga oid nazariy tushunchalar alohida mavzu doirasida berilmaydi. Biroq aruz vaznida yozilgan asarlarni o'rganish davomida vazn bilan bog'liq turli nazariy bilimlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda berib boriladi. Masalan 8-sinfdan o'rin olgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni aruz she'riy tizimi asosida yaratilgan. She'riyatimizga taxminan X asrda kirib kelgan ushbu she'riy sistema asta-sekinlik bilan o'zlashtirila borib, XIV asrga kelib asosiy she'riy o'lchovga

---

<sup>2</sup> S.Ahmedov va b. 5-sinf uchun darslik. Toshkent, Sharq, 2011. II qism24-bet.

aylandi. Shundan so‘ng, aruz XX asr boshlarigacha adabiyotimizda keng qo‘llandi, zamonaviy she‘riyatimizda ham ushbu she‘riy tizimda ko‘plab asarlar yaratilmoqda.

Aruz she‘riy o‘lchovi misralar cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslanadi. Qisqa unli bilan tugallanuvchi ochiq bo‘g‘in – qisqa bo‘g‘in, cho‘ziq unli bilan tugagan va o‘z tarkibiga qisqa unlini olgan yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq bo‘g‘in hisoblanadi. Paradigmada qisqa bo‘g‘inlar “V”, cho‘ziq bo‘g‘inlar esa, “-” bilan belgilanadi. Bo‘g‘inlarning qisqa-cho‘ziqligi misralardagi so‘zlar, bo‘g‘inlarning yozilishiga ko‘ra emas, balki ifodali o‘qilgandagi talaffuziga qarab belgilanadi. Jumladan, “Qutadg‘u bilig” dostonidan olingan:

Kishi tug‘di, o‘ldi, so‘zi qoldi, ko‘r,

O‘zi bordi yanglug‘ oti qoldi, ko‘r, -

misralardagi bo‘g‘inlarni vazniga moslab o‘qib, yuqoridagi belgilar bilan belgilasak:

V - -    V - -    V - -    V -

V - -    V - -    V - -    V -

tarzidagi chizma hosil bo‘ladi. Ushbu shaklda aruz tizimi xususiyatlari yorqin aks etadi. Ya‘ni e‘tibor qilsangiz, misralarda qisqa va cho‘ziq bo‘g‘inlar ma‘lum tartib bilan kelayotganini ko‘rasiz. Demak, dostonidagi har qaysi misrada 11 tadan bo‘g‘in bo‘lib, ular to‘rttadan-to‘rttadan guruhlanadi. Oxirgi guruhi ikki bo‘g‘inlik bo‘lib, boshqa barchasi uch bo‘g‘inlikdir. Mana shu xil takror dostonning o‘qilishida o‘ziga xos ohangni yuzaga keltiradi. Bu ohangni yanada aniq qilib:

Fauvlun fauwlun fauwlun faal

Fauvlun fauwlun fauwlun faal

so‘zlari bilan ifodalash mumkin. Barcha misralarni mana shu ohangga uyg‘unlashtirib o‘qish lozim.

Shundan so‘ng, asardan tanlangan parchalar ifodali o‘qiladi. Binobarin o‘quvchilar bunday suhbat davomida aruz tizimining bosh xususiyati – cho‘ziq

va qisqa bo'g'inlarning ma'lim bir tartibda takrorlanib kelishi natijasida aruz vazni yuzaga kelishini uqib oladilar, ushbu vazndagi she'riy asarlarni ifodali o'qiganda nimalarga qat'iy e'tibor qaratish lozimligini tushunib yetadilar.

Ikkinchi dars davomida bu xil ma'lumotlar yanada kengaytiriladi. O'qituvchi ma'ruzasining bu qismi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Aruz she'riy tizimining asosi fauvlun, foilun, foilotun, mafoiylun, mustafilun, mafulotu, mutafoilun deb atalgan yettita so'zdan iborat bo'lib, ular asllar, asosiy ruknlar deb yuritiladi. Ana shu yetti ruknlarning turli xilda takrorlanishidan aruz tizimining asosiy o'lchov birligi – bahrlar maydonga keladi. Masalan, fauvlun ruknining baytda 4, 6 yoki 8 marta takrorlanishidan **mutaqorib** deb atalgan bahr yuzaga keladi. Yani qaysi she'r mana shu o'lchovga moslab yozilgan bo'lsa, u mutaqorib bahrida yaratilgan deb aytiladi. Baytlarni bo'laklarga ajratib, har qaysi bo'lakning qaysi ruknni yuzaga keltirishini aniqlasak, she'r u yoki bu bahrida yozilgani ma'lum bo'ladi.

“Qutadg‘u bilig” dostonidagi yigitlik madhiga bag‘ishlangan qasidadagi biron baytni shu xilda ruknlarga ajratib ko‘raylik. Masalan:

Esiz bu yigitlik, qani qancha bordi,

Tilab bo‘lmadim men necha ma tilatim. –

baytni bo'laklarga ajratsak, har qaysi bo'lak fauvlun rukniga mos kelishi ma'lum bo'ladi:

Esiz bu yigitlik qani qan cha bordi,

Fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun

V - - V - - V - - V - -

Tilab bo‘l madim men necha ma tilatim.

Fauvlun fauvlun fauvlun fauvlun

V - - V - - V - - V - -

Bu parcha fauvlun rukni asosida yaratilgan ekan, mutaqorib bahrida yozilgani ma'lum bo'ladi.

Bir baytda to'rt rukn kelsa, to'rtlik degan ma'no beruvchi murabba, olti rukn ishtirok etsa, oltilik degan mano anglatuvchi musaddas, sakkiz rukn

qatnashsa, sakkizlik degan ma'no bildiruvchi musamman deb yuritiladi. Baytdagi barcha ruknlar asosiy ruknlardan, yani fauylarning o'zidan tashkil topganligi sababli solim (o'zgarmagan) deb yuritiladi. Demak, yuqoridagi bayt aruz she'riy sistemasining **mutaqoribi musammani solim** vaznida yaratilgan ekan.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari o'rganilar ekan, o'qituvchi mazkur asar ham aruz she'riy sistemasida yaratilganini ta'kidlab, undagi to'rtliklar **mutaqoribi musammani mahzuf** vaznida yozilganiga o'quvchilar diqqatini qaratadi. Asardan olingan parcha va uning paradigmasini ular e'tiboriga havola etadi:

Baholik / dinor ul / biliklik / kishi,

V - - V - - V - - V -

Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

V - - V - - V - - V -

"Qutadg'u bilig" kabi bu asarda ham cho'zib o'qiladigan bo'g'inlar juda kam. Ammo ba'zi o'rinlarda qo'shilib o'qilishi lozim bo'lgan so'zlarga duch kelamiz. O'qituvchi asardagi har qaysi misrani yuqoridagicha ruknlar ohangiga moslab, buning uchun esa, ayrim bo'g'inlarni bir-biriga qo'shib o'qish lozimligini uqtirib, o'zi namuna uchun o'qib beradi.

Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari ham aruz vaznida yozilgan bo'lib 8-sinfda o'rgatiladi. Bu dostonida ham turkona uslub qo'llanilgani tufayli ancha misralarda qo'sh undosh bilan bitgan bo'g'inlar bir cho'ziq bo'g'in hisobida o'qiladi. Masalan, *ko'rkka, arslon, ko'rclu* so'zlari uch bo'g'in emas, ikki bo'g'inli so'z sifatida o'qiladi.

Dostonida cho'zib o'qilishi lozim bo'lgan o'ta cho'ziq bo'g'inlar ham anchagina. Shuningdek, bir qator o'rinlarda so'zlarni qo'shib o'qish – vasl hodisasi ham uchraydi. Masalan, "Avvalg'i noma"dagi baytlarga diqqat qarataylik:

Ayo ko'rk+ichra odam podshohi,

Jahon tutgan sening husning sipohi.



Ko'ngul shirin so'zuing'a bo'ldi Farhod,

Ko'zung Kashmir jodusig'a ustod.

Birinchi mirsa tarkibidagi "ko'rk"ning "k" harfi vasl hodisasi tufayli "ich" ga qo'shilib talaffuz qilinadi. Ta'kidlab ko'rsatilayotgan harflar bilan bitilgan bo'g'inlar esa vazn taqozosiga ko'ra o'ta cho'ziq sanalib, bir cho'ziq va bir qisqa hijo sifatida talaffuz etiladi.

Sakkizinchi sinfda Xorazmiy "Muhabbatnoma"sidan keyin Lutfiy g'azallari va tuyuqlarini o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib mazkur mavzuga bag'ishlangan adabiyot sabog'ini quyidagicha tashkil etish mumkin:

### **Mavzu: Lutfiy. G'azal matni ustida ishlash**

**I. Ilmiy maqsad:** Mavlono Lutfiyning "Holiyokim..." deb boshlanuvchi g'azali matni ustida ishlab, tahlil qila olish malakasini hosil qilish.

**II. Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda mumtoz adabiyotga muhabbat uyg'otish.

**III. Rivojlantiruvchi maqsad:** Matn ustida ishlash, g'azal o'qiy olish, nazariy bilimlarni matn tahliliga joriy etishni bilim darajasidan avval ko'nikma, so'ng malaka darajasiga yetkazish.

#### **Darsning borishi:**

I.Kirish qismi:

1)Tashkiliy qism;

2)Takroriy qism.

**Dars jihozi:** multimedia, ekran, ekranda Lutfiy portreti. Xattaxtada o'quvchilar tomonidan ishlangan Mavlono Lutfiy surati, test savollari.

#### **Dars o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi:**

... Biz o'tgan darslarimizda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni bilan tanishgan edik. Kuni kecha Lutfiy ijodi bilan tanishishni boshladik. Siz uning g'azallari bilan tanishdingiz. Hozir siz sevib tinglaydigan "Sensan sevarim..." qo'shig'ini tinglaysiz. Shu qo'shiq yangrab bo'lguncha siz test topshiriqlarini bajarasiz.

O'quvchilar qo'shiq tugaguncha testlarni ishlaydilar. Test kaliti ekranda ko'rsatiladi. O'zlarini o'zlari baholaydilar.

**II.Asosiy qism:** Ekranda Lutfiyning "Holiyokim..." deb boshlanuvchi g'azali ko'rsatiladi.

O'qituvchi avval she'rni ifodali qilib o'qib beradi. Keyingi slaydda g'azalni tahlil qilish tizimi reja sifatida beriladi.

Reja:

1. G'azalning mohiyatini baytma-bayt ochib berish;
2. Texnik xaritasini berish:
  - a) vazni: ramali musammani mahzuf
  - b) afoyli: foilotun foilotun foilotun foilun
  - c) taqte'si: - v - - - v - - - v - - -v -
3. Qofiya va radifi;
4. San'atlari.

O'quvchilar bilan hamkorlikda bajariladi.

Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganayotganda eng ko'p qayd etiladigan janrlardan biri g'azaldir. G'azal tahlili bir necha bosqichda olib boriladi. Jumladan:

1. Mazmun - mohiyati tahlil qilinadi.
2. Texnik xaritasi ishlab chiqiladi: a) vazni haqida ma'lumot beriladi;
  - b) afoyli qayd etiladi;
  - c) taqte'sini topib, chizib chiqiladi.
3. Qofiya va radifi o'rganib chiqiladi.
4. Mazkur g'azalning ma'naviy va lafziy san'atlari tahlil qilinadi va so'zning qudrati, nafis adabiyotning go'zalligi ta'kidlanadi.

Mustaqil o'qish uchun berilgan g'azallardan biri "**Holiyokim...**" deb boshlanuvchi g'azalning tahlili qisqacha quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

**1.Mazmun - mohiyati** baytma-bayt tabdil qilinib, unda tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarga alohida ahamiyat qaratiladi. G'azalning sof

tasavvufiy yoʻnalishda ekanligi, ilohiy ishq kuylanayotgan davroning oʻtkinchiligi-yu, mahbuba (Olloh)ga muhabbatning boqiyiligi taʼkidlanadi.

Masalan,

*Holiyokim, davri ishrat tur iliktin jomni*

*Solmagʻilkim, koʻrdim asru bevafo ayyomni.*

Hol buki, bu dunyo juda (*asru*) bevafo, shunday ekan, qoʻldan (*iliktin*) qadah (*jom*)ni qoʻyma, chunki ishrat zamonidir. Birinchi koʻrinishda mayhoʻrlikka daʼvat etayotgan bu misralarning botinida oʻtkinchi dunyoga bogʻlanmay, Olloh visoli mayi bilan ishrat qilish lozimligi uqtiriladi. Bu oʻrinda **holbuki** kiritmasining *holiyokim* shaklida, **qoʻl** soʻzining *ilik* shaklida, **juda** soʻzining *asru* shaklida, olma, qoʻyma buyruq feʼlining solmagʻilkim shaklida ishlatilganligining guvohi boʻlamiz. Qolgan baytlar ham shu tartibda oʻrganib chiqiladi va arxaik soʻzlarning mazmunini tahlil qilish orqali gʻazalning maʼnaviy qudrati ochib beriladi.

## 2. Gʻazalning texnik xaritasi:

- a) vazni: **Ramali musammani mahzuf**
- b) afoyili: **foilotun foilotun foilotun foilun**
- c) taqteʼsi: - v - - - v - - - v - - -v-

## 3. Qofiya va radifi:

*Jom, ayyom, xos-u om, gulfom, bodom, dashnom, ikrom, orom* soʻzlari qofiya sifatida qoʻllangan. Raviy tovush (m) dan keyin qoʻshimcha qoʻllanganligi uchun bu **mutlaq** qofiya hisoblanadi. Bu gʻazalda radif qoʻllanilmagan.

**4. Maʼnaviy va lafziy sanʼatlari.** Gʻazalda bir qator badiiy sanʼatlardan unumli foydalanilgan. Masalan,

*Bodaningki, lazzatini bilgay erdi Xizr, agar*

*Ichgay erdi obi hayvontek mayi gilfomni*

baytida shoir **talmeh, tanosub, tashbeh, sifatlash** kabi bir qator sanʼatlardan unumli foydalangan.

Gʻazal matni ustida ishlash jarayonida oʻquvchi sheʻrning ham texnik tomonini, ham mazmun-mohiyatini chuqur oʻrganadi. Soʻzning maʼnosiga eʼtibor qaratadi, sheʻrning latofatini his qilish orqali maʼnaviy barkamollikka intiladi.

**III.Mustahkamlash:** “Muqobillarning eng maqbuli” topshirigʻi bajariladi. Bunda Lutfiy gʻazallaridan 3 ta bayt saralanadi. Baytlardan 1 tadan soʻz tushiriladi. Matnda esa mos keluvchi (ham mazmunan, ham shaklan) soʻz qoʻyilishi kerak. Zarur soʻz muqobillari bilan berilgan.

**IV.Uyga vazifa:** Lutfiyning ushbu gʻazalini yodlash.

**V.Baholash va darsni yakunlash.**

Koʻrinadiki, maktab darsliklarining 5-sinfidan boshlab oʻquvchilar aruz vazni va unda yozilgan adabiyot namunalarini oʻqib oʻrganadilar. Nazariy tushunchalarning berilishi esa mavzu bilan bogʻliq ravishda, tahlillar davomida oʻrgatib boriladi. Demak, adabiyot oqituvchisi har bir sinfda aruz vazni bilan bogʻliq nazariy tushunchalarni oʻquvchilarning yosh xususiyatiga mos ravishda matn ustida ishlash jarayonida vazn bilan bogʻliq nazariy maʼlumotlarni ham oʻrgatib boradi.

### **III BOB. ARUZ SHE'RIY TIZIMIDAGI ASARLARNI IFODALI O'QISH**

#### **3.1. Mumtoz adabiy asarlar tahlilida ifodali o'qishning o'rni**

Aruz she'riy tizimi bilan o'quvchilarni tanishtirish. avvalo amaliy maqsadni ko'zlaydi. Gap shundaki, mazkur she'riy o'lchov tizimi asosida yaratilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish aruz nazariyasidan puxta bilimga ega bo'lishni talab etadi. Aruz o'lchovining yetakchi jihatlari – uning qisqa va cho'ziq bo'g'inlar takroriga asoslanishi, asosiy ruknlari, bahrlari, vaznlari, ifodali o'qish usullarini yaxshi o'zlashtirmay turib, ushbu tizim asosida bitilgan asarlarni to'g'ri, savodli tarzda o'qish mumkin emas. Shuning uchun ham o'qituvchi diqqati dastavval mana shu masalaga qaratilmog'i lozim.

Aruz tizimidagi xilma-xil lirik va epik asarlarni ifodali o'qish, ularning vazn xususiyatlarini tahlil qilish va turli-tuman o'lchovlarni aniqlash malakalarini egallash uchun ham mazkur tizimning nazariy masalalaridan yetarli darajada xabardor bo'lish talab etiladi.

Adabiy ta'limda aruz she'riy tizimining nazariy va amaliy masalalarini izchil o'rganishga kirishiladi. Ushbu yo'nalishdagi mashg'ulotlar davomida o'qituvchi diqqati quyidagi masalalarga qaratilishi darkor:

- vaznning she'riy asardagi o'rni va roli, vazn turlari, har qaysi vaznning ritm-ohang imkoniyatlaridan o'quvchilarni xabardor qilish;

- o'quvchilarni aruz tizimining eng muhim nazariy masalalari bilan tanishtirish, har bir asar vaznini ularga o'rgatib borish;

- ushbu tizim vaznlarida yozilgan lirik va epik asarlarni ifodali o'qish malakalarini mustahkamlab borish;

- shoirlarning she'riy o'lchov tanlash mahorati, asar g'oyasini mujassamlashtirish, lirik va epik qahramonlar qiyofasini chizishda vaznlarning ritmik-ohangdorlik xususiyatlaridan foydalanganligini ochib berish;

- o'quvchilar ongida o'zbek aruzining shakllanish tarixi va rivojlanish qonuniyatlari, yetuk shoirlarning o'zbek aruzi tarqqiyotiga qo'shgan hissalarini haqida tushunchalar hosil qilish.

O'quvchilarga she'riy asarda vaznning o'rni va ahamiyatini tushuntirish ishi albatta, tayanch sinflarda olingan bilim va tajribalarga asoslanadi. O'qituvchi 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari matni ustida ishlash jarayonida she'riy asarda vaznning ahamiyatini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Dasturga muvofiq ushbu sinfda Lutfiy she'riyatidan namunalari o'rganish ham ko'zda tutilgan. Bu asarlarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilish jarayonida shoirning vazn ustida ishlash mahoratining ba'zi qirralari o'zlashtiriladi.

Shoirning "Sensan sevarim..." deb boshlanuvchi mashhur g'azali o'zbek aruziga mansub o'ynoqi vaznlaridan biri – hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf o'lchovida yozilgan bo'lib, uning ruknlari va paradigmasi tubandagichadir:

Sen-san se / va-rim, xoh / i-non xoh / i-non-ma,  
- - V / V - - V / V - - V / V - -  
Qon-dir ji / ga-rim, xoh / i-non xoh / i-non-ma.  
- - V / V - - V / V - - V / V - -

Demak, she'r quyidagicha o'qiladi:

Sensan sevarim, **xo-h** inon, **xo-h** inonma,  
Qondir jigarim, **xo-h** inon, **xo-h** inonma.  
Hijron kechasi charxi falakka yetar ey **mo-h**,  
Ohi saharim, **xo-h** inon, xo-h inonma.  
Haqqoki qilich kelsa boshimg'a eshikingdin,  
Yo'qdur guzarim, **xo-h** inon, **xo-h** inonma.  
O'sruk ko'zung ashkolina hargoh nazar etsam,  
Qolmas xabarim, **xo-h** inon, **xo-h** inonma.  
Ya**qu-b** bikin ko'p, yig'idin qolmadi sensiz,  
Nuri basarim, **xo-h** inon, xo-h inonma.  
Oy yuzinga ko'z solg'ali o'zg'a kishi birla,  
Yo'qdur nazarim, **xo-h** inon, **xo-h** inonma.

Ishq+o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,

Ey, siymbarim, xo-h inon, **xo-h** inonma.

E'tibor qilinsa, g'azalni ifodali o'qish uchun radiflardagi **xoh** so'zi, shuningdek **Yaqub** so'zining ikkinchi bo'g'inlari tarkibidagi unililarni cho'zish hisobiga, **siymbarim** so'zining birinchi bo'g'inlari tarkibidagi ikkinchi undoshga qisqa «i» qo'shish hisobiga o'ta cho'ziq bo'g'inlar yuzaga kelmoqda. **“Yetar ey”, “ko'zung oshkolina”, “nazar etsam”** va **“ishq o'tida”** birikmalari qo'shib talaffuz qilinadi. Ushbu qo'shilishlardan ham albatta, muayyan maqsad mavjudligini izohlash lozim: Birinchi uchta birikmalardagi ikkinchi bo'g'inlar **vasl** ta'sirida o'z undoshlarini yo'qotib, qisqa hijolarga aylanmoqda; «ishq o'tida» birikmasidagi birinchi o'ta cho'ziq bo'g'in “q” tovushidan ajrab oddiy cho'ziqqa aylamoqda. Bu hodisalar ushbu vazn taqozosi bilan yuz bermoqda.

Lutfiy qalamiga mansub “Tortadur” radifli g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo'lib, uning ruknlari va chizmasi tubandagicha ko'rinishga ega:

Ko'r-ga-li la / ling a-qi-qin / ko'ng-lum ul yon / tor-ta-dur,

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Bu yo-mon an / di-sha-liq-ni / go'-y-yo qon / tor-ta-dur.

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

She'rni ifodali o'qish uchun misralardagi **dod, tuproq, raqib** so'zlaridagi **“o”** va **“i”** unilililarini cho'zib, **kuf** so'zining oxirgi undoshini alohida qisqa bo'g'in qilib, **ko'nglum ul, sehr ila, mayl etar, jins o'zini** birikmalarini qo'shib talaffuz etish lozim. Va albatta, ushbu harakatlardan kutilgan maqsad, ya'ni bo'g'inlar sifatida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan o'quvchilar tanishtirilishi kerak.

Lutfiy g'azal va tuyuqlarining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida shoirning vazn tanlashdagi mahoratini alohida ta'kidlab, har bitta asar vazni go'yo, lirik qahramon kayfiyatini yorqinroq ochishga yordam berganini ta'kidlab o'tish darkor.

Ma'lumki, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zbek aruzi taraqqiyotiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Fors-tojik she'riyatini, shu jumladan uning vazn xususiyatlarini atroflicha o'rgangan Navoiy turkiy aruzning taraqqiyot yo'llarini chuqur tasavvur qilgan holda qator yangi bahrlar, o'nlab yangi vaznlarni she'riyatimizga olib kirdi. Aruzshunos olim Anvar Hojiahmedovning guvohlik berishicha, Navoiygacha adabiyotimizda istifoda qilingan vaznlar 40 ta bo'lsa, ulug' shoirning xizmatlari tufayli bu xil o'lchovlar soni 100 ga etdi.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy o'zbek aruzining bir qator ichki imkoniyatlarini kashf etdi, qofiya, radiflardan mohirona foydalangan holda ohang jilolariga erishishning usullarini yaratdi. U she'riyatimizga qator yangi she'riy janrlar olib kirish bilan ham aruzning tezkorlik bilan taraqqiy qilishiga yo'l ochib berdi.

Alisher Navoiy ijodini o'rganish jarayonida o'quvchilar mana shunday muhim masalalar bilan tanishadilar, buyuk ijodkor she'riyatining vazn jihatdan barkamolligi haqida atroflicha tasavvurga ega bo'ladilar.

Navoiyning adabiyot darsliklaridan o'rin olgan "O'n sakiz ming olam oshubi..." deb boshlanuvchi g'azali asosan **ramali musammani mahzuf** vaznida bitilgan bo'lib, 3-, 7-, 11-, 13-misralar unga yaqin bo'lgan **ramali musammani maqsur** vaznidadir. Binobarin, g'azal misralari **foilotun foilotun foilotun foilon** ruknlari o'lchovida o'qiladi:

O'n sa-kiz ming / o-la m+o-shu / bi a-gar bo / shin-da-dur,

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Ne a-jab, chun / sar-v-no-zim / o'n sa-kiz yo / shin-da-dur.

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Matndagi "sarvnozim" so'zidagi "**sarv**" bo'g'ini, **husn, aql, dayr, sun** bo'g'inlaridagi oxirgi undoshlarni alohida qisqa bo'g'in tarzida, **tosh, bor, ashk, masih** kabi o'ta cho'ziq bo'g'inlarning keyingi undoshlari navbatdagi so'zning unlisiga qo'shilgan holda talaffuz etilishiga o'quvchilar diqqatini qaratib, ushbu holatlardan kuzatiladigan maqsadlar mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. T., O'qituvchi, 1995, 142-bet.



Shoir qalamiga mansub bo‘lgan “G‘urbatda g‘arib...” deb boshlanuvchi ruboiy ikki vaznda yaratilgan bo‘lib, asarning 1-, 2-, 4-misralari **hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb** vaznidadir. Ruknlari va paradigmasi quyidagichadir:

Mafuvlu / mafoilun / mafoiylu / faal  
 - - V / V - V - / V - - V / V -

3-misrasi esa ikkinchi xil – hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtarda bitilgandir. Ushbu misra ruknlar tartibi tubandagi ko‘rinishga ega:

Mafuvlu / mafoilun / mafoiylun / fa  
 - - V / V - V - / V - - - / -

Binobarin ruboiy ikki xil o‘qiladi:

G‘ur-bat-da / g‘a-ri-b sho / d mon bo‘l-ma / s+e-mish,  
 El an-ga / sha-fi-qu meh / ri-bon bo‘l-ma / s+e-mish,  
 Ol-tun qa / fa-s+ich-ra gar / qi-zil gul but / sa,  
 Bul-bul-g‘a / ti-kan-dek o / sh-yon bo‘l-ma /s+e-mish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, ruboiydagi g‘arib so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini, shodmon, oshyon so‘zlarining birinchi bo‘g‘inlari tarkibidagi unlilar cho‘zib, ta’kidlangan, “+” ishorasi bilan belgilangan o‘rinlardagi undoshlar esa qo‘shib talaffuz qilinishi kerak.

“Jondin seni ko‘p sevarmen ey, umri aziz” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiy ham xuddi shu tarzda vazn xususiyatlariga egadir. Yani unda ham o‘lchov o‘zgaradi, binobarin o‘qilishda ohang boshqacha bo‘ladi:

Jon-din se / ni ko‘p se-var / me-n+ey, um-ri / a-ziz,  
 - - V / V - V - / V - - V / V ~  
 Son-din se / ni ko‘p se-var / me-n+ey, um-ri / a-ziz,  
 - - V / V - V - / V - - V / V ~  
 Har ne-ni / ki sev-ma-k+on / di-n+or-tiq bo‘l /mas,  
 - - V / V - V - / V - - - / -  
 Son-din se / ni ko‘p se-var / me-n+ey, um-ri / a-ziz,  
 - - V / V - V - / V - - V / V ~

Ko‘rinadiki, ushbu ruboiy vazni avvalgiga juda o‘xshash-u, lekin xuddi o‘ziday emas. 1-, 2- va 4-misralar **faal** bilan emas, **faul** bilan tugamoqda. Demak, ushbu misralar **hazaji musammani maqbuzi makfufi axramda** bitilgandir. Shuning uchun ham radif – “aziz” so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi «i» unlisi cho‘zilib talaffuz etiladi. Shuningdek, **sevarmen** so‘zini har uch misrada, uchinchi misradagi **sevmak** so‘zini o‘zidan keyingi kelgan bo‘g‘inga qo‘shib talaffuz qilish talab qilinadi.

Mana shu xil tushuntirish, aniqrog‘i avvalgi sinflardagi va “Adabiyot qoidalari” darslar orqali birmuncha tanish bo‘lgan ma’lumotlarni eslab, yangi materialni vazn nuqtai nazaridan tahlilga tortish har bitta aruzga tegishli asarni o‘rganganda o‘qituvchi tomonidan qilinishi lozim bo‘lgan harakatdir. Ushbu xil ma’lumotlarni o‘qituvchi hamma vaqt ham ma’ruza orqali o‘quvchilarga yetkazishi shart emas, u maqsad yo‘lida suhbat yoki boshqa xil zamonaviy usullardan foydalanishi mumkin.

Shuni alohida takidlash kerakki, aruz tizimiga oid nazariy bilimlarni o‘rgatishmi yoki amaliy xarakterdagi darslar jarayonida aruziy qoidalarni eslab, olingan bilimlarni mustahkamlashmi, umuman aruzga doxil darslarda u yoki bu xil ko‘rsatmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, o‘quvchilarga yetkaziladigan barcha ma’lumotlar dars jarayonida sinf taxtasiga yoziladigan bo‘lsa, vaqt byudjeti masalasida chigallik yuzaga kelishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, adabiyot o‘qituvchisi doimo ko‘rgazmali vositalardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanishi lozim.

### 3.2.Mavzu yuzasidan metodik tavsiyalar

**Mavzu:** Alisher Navoiyning “O‘n sakiz ming olam oshubi” g‘azali

**Darsning maqsadi.**

**1. Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarning nazmiy go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish tuyg‘ularini shakllantirish

**2. Ta’limiy maqsad :** a)g‘azalni sharhlash, mazmunini o‘zlashtirish san’atkorlik qirralarini ochish;

b) o‘quvchilarni tahlilga o‘rgatish, ularning ijodiy tafakkurlarini o‘stirish, ijodiy imkoniyatlarini namoyon qila bilishga o‘rgatish.


**Darsning jihozlanishi:**

Alisher Navoiy portreti, asarlaridan namunalar, jadvallar, rasmlar, audio va video tasmlar.

**Texnik vositalar:** Magnitofon, televizor.

**Dars usullari:** “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Aniqlash”, “Tadqiqot”, “Ijod”.

**Amalga oshiriladigan tahliliy bosqichlar:**



**O‘qituvchi:**


“Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan...”. Darhaqiqat, shoirimiz Abdulla Oripov aytganidek, dunyo – sir, hayot – sir. Qo‘liga qalam ushlagan zot borki , ana shu “anglab bo‘lmas sir” ning tagiga yetishga urinadi. Lekin olam sir-sinoatlarini Navoiychalik izlagan shoir kam bo‘lsa kerak. Chunki, she’riyatning o‘zi ham sir! Mumtoz so‘z san’atkorlari satrlarida jo bo‘lgan jilolarni aniqlash, bilib olish uchun nimalarga e’tibor berish lozim? Shoirni qalam tutishga undagan dard nimadan iborat? Asarda qanday ichki

ma'nolar yashirin? Bugungi darsimizda ana shu savollarga javob izlaymiz, Navoiy g'azallarining sehrli olamiga sayohat qilamiz.

### **“Aqliy hujum”**

G'azal nima?

O'quvchilar g'azal haqidagi dastlabki fikrlarini shu paytgacha o'rgangan bilimlari asosida bildira boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Noto'g'ri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi. Chiroyli, asosli fikrlar rag'batlantiriladi va umumlashtiriladi. O'qituvchi rahbarligida “Klaster” usulidan foydalanib, g'azalga ta'rif beriladi.



O'quvchilar mustaqil fikr bildirib, bu usulni davom ettirishlari mumkin.

**O'qituvchi:** Har g'azalning o'z go'zalligi, maromi, ta'sirchanlik quvvati bor. Alisher Navoiyning “O'n sakiz ming olam oshubi...” g'azalining badiiy malohati, mahorat mahsuli ekanligi har qanday kitobxonni maftun etadi.

Suxandon Mirzohid Rahimov tomonidan o'qilgan g'azal audio tasma orqali eshittiriladi.

### **“Tadqiqot”**

O'qituvchi topshirig'i bilan o'quvchilar guruhlarida kichik ilmiy tadqiqot o'tkazadilar va natijalarini himoya qiladilar.

Savollar:

1.G‘azalning insonga ta‘sirini qanday tushunasiz?

2.G‘azalning ma‘no va ifoda boyligiga asosiy sabab nima?

3.G‘azalning yaratilish davri, qofiya tizimi va uning asosini nima belgilashini aniqlang.




**1-guruh:** Shoir so‘zlarini misralarga, misralarni baytlarga ulaydi. G‘azaldagi har bir so‘z qalam kuchi bilan shuurimizda ta‘sir uyg‘otadi, ruhimizda ajib hislar paydo etadi, tafakkurimizni g‘oyalar sari yetaklaydi, boyitadi.

**2-guruh:** G‘azalda 73 ta so‘z ishlatilgan. Ayrimlari bir necha bor qo‘llanganini qo‘shib hisoblasak, ular soni 99 taga yetadi. Lekin g‘azalda ifodalangan ma‘nolarni boshqa birov shuncha oz so‘z bilan Navoiychalik bayon eta olmasa kerak. Shoir dahosi, mahorati g‘azalni shu darajaga ko‘targan.

**3-guruh:** Bu g‘azal Navoiyning balog‘at (yetuklik) davri lirikasi mahsuli bo‘lib, yetti bayt, 14 misradan iborat. G‘azal a-a, b-a, v-a, g-a,d-a tarzida qofiyalangan. Mumtoz adabiyotda qofiya maxsus fan sifatida o‘rganiladi. Qofiya asosini so‘z o‘zagidagi so‘nggi tovushning takrori tashkil etadi. Ana shu tovush **raviy** deyiladi.

**“Anglash”**

**O‘qituvchi:** G‘azal yuksak badiiyati tufayli shuhrat topgan. “O‘n sakiz ming olam oshubi...” g‘azalini quyidagi qatlamlar orqali ko‘rib chiqaylik.



**1. So‘z qatlami.** So‘z nuqtai nazaridan shoir biror yerda yor deganda Yaratganni ko‘zda tutayotganini oshkor bildirib o‘tmagan. G‘azal, bir qarashda,

odatdagidek, 18 yoshli qiz go‘zalligi ta’rif-u tavsifiga, uning ana shu chiroyidan hayratlanish tuyg‘ulari ifodasiga bag‘ishlangandek go‘yo. So‘z jihatidan g‘azal ana shu so‘z tizimi mantig‘iga bo‘ysunadi.

**2. Ma’no qatlami.** Ma’no jihatdan esa ana shu so‘z zamirida yotgan narsa tushuniladi. G‘azalda yor timsoli Haq taoloni anglatib kelishi ayni shu ma’no qatlamini bildiradi.

**3. Murod qatlami.** Shoirning yorni tasvir markaziga olishidan ham, bu timsol asosida Ollohni ko‘zda tutishidan ham ko‘zlangan maqsadi bor. Har qanday adabiy asar hayotni aks ettiradi. G‘azalda so‘z qatlamidagi yor ham, ma’no qatlamidagi Olloh ham hayotni aks ettirishning bir yo‘li – vositasi ekani oydinlashadi. Ana shu 3 qatlam uyg‘unligi birgina g‘azalda yor ishqi, hijron azoblari, hayotdan zavqlanish, go‘zallik va dunyo sirlaridan hayratlanish g‘oyalarini tarannum etish imkonini beradi.

**“Tahlil”.**

G‘azal guruhlar o‘rtasida baytma - bayt tahlil qilinadi.

**1-guruh:**

*O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,*

*Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.*

“O‘n sakiz ming olam” – olloh yaratgan tamomi borliqni bildiradi. O‘n sakiz yoshli dilbarning sarvinozligidan ko‘ra, uning shu yoshdagi ma’naviy-ruhiy ahvoli tasviriga urg‘u beriladi... Timsol va iboralar rivoji quyidagicha talqin etilgan: “O‘n sakiz ming olam”, “O‘n sakiz yil”, “O‘n sakiz yosh”, “O‘n sakiz yil”, “Yuz sakson yil”, “Hayrat”, “Aqlg‘a yuz hayrat”, “yuz hayrat”.

**2-guruh:**

*Hayrat etman husni naqshidaki, har hayratki, bor,*

*Barchasi ezid taolo suno naqqoshindadur...*

Navoiyning fikricha, har qanday hayratomuz go‘zallikning yaratuvchisi va ijodkori “suno naqqoshi” – xudodir. Har bir jonzot, shu jumladan inson ham ilohiy mavjudotning zarrasi, aksidir. Har bir chiroyda Tangri taolo jamoli jilvalanib turadi.

**3-guruh:** Uchinchi baytdagi “Ul balolarkim ko‘z-u qoshindadur” iborasi bir necha ma‘noni ifodalaydi:

1.“Ul (ya‘ni eslatilgan) balolarning bari uning ko‘zi-yu qoshi (chiroyi) ustida bo‘lyapti”.

2.“Ul balolar uning ko‘zi o‘ngida va qoshida bo‘lib turibdi, chunki u shoh, shoh esa ( husn shohi) bu balo-qazolardan bexabar bo‘lishi mumkin emas”.

Tahlil davomida g‘azalga joziba baxsh etgan tasvir va ifodalar tizimini ko‘rib boriladi, ziynatlagan she‘riy san‘atlarning turlari aniqlanadi.

**4-guruh:** G‘azalning oltinchi baytida Iso payg‘ambarga ishora qilingan. Bu talmeh san‘atiga misoldir:

*May ketur, ey mug‘ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,*

*Bula jablarkim, bu eski dayr xuffo shindadur.*

G‘azalning maqta‘sida istioradan foydalanilgan:

*To Navoiy to‘kdi ul oy furqatidin bahri ashk,*

*Har qachon boqsang, quyosh aksi uning yoshindadur...*

G‘azalning badiiy malohati va chiroyida istioraning ta‘siri juda kuchli. Misradagi “ul oy”, “husn shohi” kabilar fikrimizning yorqin dalilidir.

Sharq g‘azaliyotida ko‘z va qosh madhida aytilgan hamma sifatlar sarvinozning “ko‘z-qosh”idagi ul balolar sehrida nazarga olingan. Masalan; ko‘z – xunxo‘r; ko‘z – jallod; ko‘z – fitnagar; qosh shamshir kabi qattol. Biri imo qilib, biri jon oladi.

Tahlildan so‘ng xonanda Berta Davidova ijrosida mumtoz qo‘shiq video tasmadan qo‘yib beriladi.

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar! Navoiyning birgina g‘azalida shuncha hayratomuz sehrlar borligidan voqif bo‘ldik. Navoiy ijodi ummon bo‘lsa, darsimizda bir qatrasining jilvasidan bahramand bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldik.

## ***“Ijod”***

Navoiy ijodidan ilhom olib, quyidagi soʻzlardan bayt hosil qiling. Siz kashf etgan nazm chechagi bizning Navoiy bobomizga boʻlgan chuqur ehtiromimiz va bergan yuksak bahomiz boʻladi.

**Har, barchasi, Navoiy, ibrat, soʻzi, bir, hikmat, aytqon.**

Oʻquvchilar soʻzlarni joylashtirib, qofiyalaydilar. Quyidagi bayt yuzaga keladi.

*Navoiyning har bir soʻzi hikmatdurur,*

*Aytqonlarin barchasi ibratdurur.*

**Oʻqituvchi:** Darhaqiqat, quyosh kabi soʻnmas, oltin kabi qoraymas, moʻjizakor nafis, hayratomuz goʻzal, rang-barang va sehrli badiiyat Navoiyning sohir satrlari naqadar zavqli, ilhombaxsh, shavqli va ibratlidir.

Mazkur dars ishlanma boʻyicha Nukus shahri 38-maktabning 8-A sinfida ochiq dars oʻtkazildi va oʻquvchilarning mavzuni oʻzlashtirishi tez va oson kechdi. Qoʻllanilgan usullar aruz vazniga oid nazariy maʼlumotlarni tez va oson oʻzlashtirilishiga imkon berdi.



## UMUMIY XULOSALAR

She'riyatimizda ming yillardan beri istifoda qilinib kelinayotgan aruz she'riy sistemasini o'rganish nafaqat umumta'lim maktablari, balki xalq talimi tizimining hamma shakllarida – akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va boshqa ta'lim beruvchi xususiy tarmoq o'quv maskanlarida adabiyot o'qitishning doimiy dolzarb muammolaridan biridir. Uning nazariy asoslarini, shoirlarimiz tomonidan keng qo'llanilgan vaznlarini puxta o'zlashtirmay turib dasturdan o'rin olgan she'riy asarlarni ifodali o'qish ham, badiiy san'atkorlikning muhim jihatlaridan biri bo'lmish vazn ustida ishlash mahoratini anglab etish ham qiyin bir faoliyat.

Ma'lumki, aruz ilmiga tegishli mal'umotlarni o'rgatish umumta'lim maktablarining 5-6-sinflaridayoq boshlanadi. Ular bu sinflarda darslik va majmualarda o'rganiladigan she'riy asarlarni ifodali o'qish, aruz ilmining asoslaridan biri bo'lgan qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni bir-biridan ajratish ko'nikmasini hosil qiladilar.

7-8-9-sinflarda esa, aruzning nazariy tushunchalarini egallash birmuncha chuqurlashadi. Shu sababdan ham ushbu sinflar darsliklarida aruz nazariyasining elementar masalalariga bag'ishlangan maxsus nazariy darslarni ham uchratish mumkin.

Ta'limning navbatdagi bosqichi akademik litseylarda aruzni o'rganish ikki yo'nalishda kechadi: "Adabiyot" darslarida ko'proq amaliy xarakterda o'rganilsa, "Adabiyot qoidalari" darslarida aruz she'riy sistemasining nazariy masalalari atroflicha o'rganiladi.

Aruz nazariyasini o'rganishning ilmiy-metodik tadqiqoti shularni ko'rsatdi:

- birinchidan, ta'lim jarayonining turli bosqichlari (jumladan oliy ta'lim ham) uchun yaratilayotgan dastur va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratishda muvofiqlashtiruvchi tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Negaki, ularda nazariy bilimlarni o'rganishda muayyan izchillik yetishmaydi. Bu xil manbalarda

mualliflarning masala yuzasidan tushunchalarining sayozligi yoki e'tiborsizligi natijasida ko'plab xatolarga yo'l qo'yilmoqda;

- ikkinchidan, aruz nazariyasining barcha masalalarini o'zlashtirish nihoyatda qiyin bir mashg'ulotga aylangan. Buning sabablarini biz ushbu ishimizda aniqlashga harakat qildik. Shulardan kelib chiqib, aruz vazni qoidalarini imkon qadar soddalashtirish, uni o'quvchilar ongiga yetkazishning samarali usullarini ishlab chiqish zarur;

-uchinchidan, maktab dastur va darsligiga aruz vazni va uni ifadali o'qish bo'yicha nazariy qoidalar har bir sinfda chuqurlashtirilgan tarzda berilishi lozim.

- to'rtinchidan, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida adabiyotchi muallimlar uchun aruz nazariyasini o'rgatish kursini alohida fan sifatida kiritish darkor;

- beshinchidan, aruz ilmi sirlarini o'rganish bo'yicha turli tanlovlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi;

- oltinchidan, aruz ilmini o'rganishda ko'rgazmalilikning o'rni muhimdir. Aruz nazariyasi asoslarini aks ettiruvchi jadvallar, badiiy so'z ustalari ijrosidagi audio-video materiallar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish garovidir. Bularni amalga oshirish uchun mamlakat miqyosidagi mutasaddi tashkilotlar bu ishga malakali metodist-olimlar va mutaxassislarni safarbar qilishni lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, qariyb ming yillik tarixga ega bo'lgan aruz vaznini chuqur o'rgatish mumtoz adabiyotimiz durdonalaridan to'la bahramand bo'lish imkonini yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent:O'zbekiston. 1995.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch, Toshkent:Ma'naviyat. 2008.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor, T.: 2009.
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir, Toshkent:O'zbekiston.2015.
6. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik, 2-jild, Toshkent:Fan. 1979.
7. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent:O'qituvchi. 1980.
8. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston.2002.
9. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent:Yangi asr avlodi. 2006.
10. To'xliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent:O'qituvchi, 2003.
11. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma.Toshkent: O'qituvchi. 2002.
12. Mualliflar jamoasi. O'zbek adabiyoti o'qitishning dolzarb muammolari.Toshkent. 2007.
13. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning almiy-nazariy asoslari. Toshkent. O'qituvchi.1996.
14. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. Toshkent, ToshDU, 1982.
15. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. Toshkent: O'qituvchi. 1995.
16. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. Toshkent: Sharq. 1998.
17. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Xalq merosi nashriyoti. 2004.

18. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent:O'qituvchi. 1993.
19. Mualliflar jamoasi. Filologik ta'lim masalalari. Toshkent. 2007.
20. Akademik litseylarning ijtimoiy gumanitar fanlar va horijiy filologiya yo'nalishidagi tarmoq talim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o'quv dasturlari. Toshkent. 2005.
21. S. Ahmedov va b. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik.
22. S. Ahmedov va b. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik.
23. Q. Yo'ldoshev va b. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik.
24. S. Olimov va b. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik.
25. Q. Yo'ldoshev va b. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik.
26. Q. Husanboyeva. Adabiy saboqlar. 6-sinf uchun metodik qo'llanma. Toshkent. 2003.
27. Q. Husanboyeva. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Toshkent. 2003.
28. Salayev F., Qurbaniyazov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010.
29. Bekchanova S., Allamberganova N. Adabiyot darslarida matnni sharhlash. Toshkent. 2011.
30. Allamberganova N. Adabiyot darslarida milliy qadriyatlarni o'rgatish. Nukus: Qoraqalpog'iston. 2016.

### **Foydalanilgan information resurslar**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

[www.e-adab.uz](http://www.e-adab.uz)

<http://lectures.ndpi.uz/>